

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIY KAFEDRASI

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 y**

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

UMAROVA YULDUZ SHERAMATOVNA

**“So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar “
mavzusidagi**

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Ilmiy rahbar: dots. Tursunpo‘lotov M

Taqrizchi: o‘qit. Ibragimova L

**BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedrası yig‘ilishining qarori bilan
(Qaror № 10 15.05.2013). Himoyaga tavsiya
etilgan.**

*Kafedra mudiri: _____ p.f.n.Q. Yadgarov
(imzo)*

JIZZAX-2013

MAVZU: SO‘ZLASHUV NUTQIGA XOSLANGAN JARGO VA ARGOLAR

Reja:

Kirish

I.Bob. So‘zlashuv nutqi haqida tushuncha.

- 1.1. So‘zlashuv nutqi leksikasining xarakterlovchi belgi va mezonlari
- 1.2. So‘zlashuv nutqiga xoslangan oddiy muomalaga oid so‘zlar
- 1.3. So‘zlashuv nutqi uslubi tushunchasi
- 1.4. So‘zlashuv nutqining oddiy so‘zlashuv nutqi, “soda tilga” munosabati
- 1.5. So‘zlashuv nutqiga xoslangan erkalov-kichraytiruv so‘zlari
- 1.6. So‘zlashuv nutqiga xoslangan tabu va evfemizmlar
- 1.7. So‘zlashuv nutqiga xoslangan kinoya, piching so‘zlar

II.Bob. So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar.

- 2.1. So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolarning tasnifi
- 2.2. Saroy amaldorlari va din peshvolari nutqiga xos jargo va argolar
- 2.3. Savdogarlar va bozorchilar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar
- 2.4. Otarchilar, sozandalar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar
- 2.5. Xotin-qizlar va talabalar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar
- 2.6. So‘zlashuv nutqiga xoslangan argolar
- 2.7. Jargo va argolar adabiy nutqning sofliğiga putur yetkazuvchi belgilar

ekanligi

III.Bob. Badiiy asarlarni o‘tish jarayonida uslublar haqida ma’lumot berish.

- 1.1. Uslublar haqida ma’lumot berish.

Xulosa.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida so'zlashuv nutqi hodisasining sintaksisi, morfologiyasi, leksikasi borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Oliy o'quv yurtlari darsliklarida, nazariy qo'llanmalarda ham jargo va argolar fransuzcha so'z bo'lib, "buzilgan til" tushunchasini anglatishi qayd etiladi va bir ikki misol keltirish bilan cheklaniladi. Xatto jargo va argo atamalari bir-biridan farqlanmaydi.

Jargo va argolarning so'zlashuv nutqida qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari, jargo va argolar alohida kishilarning nutqi bo'lmay, umumxalq lug'at fondidan olinib ko'chma ma'noda yoki buzib ishlatilgan so'z ekanligi, jargo va argo atamalarni farqlash borasidagi chalkashliklar, jargo va argolar bevosita so'zlashuv nutqi hodisasi sifatida o'rganilishi lozimligi masalasi ushbu mavzuni tanlashimga sabab bo'ldi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligida bir qancha muommoli masalalar ijobiy hal etilmoqda. Jumladan, matn lingvistikasi, nutq madaniyati masalasi, aniqrog'i o'qituvchi va o'quvchi nutqi masalasi, nutqning mantiqiyliqi, adabiy norma masalasi, joy nomlari, urug'lar nomlarini o'ganish masalasi va boshqalar.

80-yillar tilshunoslarning diqqatini jalb etgan xodisa, ya'ni so'zlashuv nutqi xodisasi uch-to'rtta nomzodlik va birgina doktorlik ishi bilan yakunlanganligini qator materiallar tasdiqlaydi. Bular filologiya fanlar doktori, professor B.O'rinboyevning "So'zlashuv nutqi sintaksisi"¹, M.Tursunpo'latovning "O'zbek so'zlashuv nutqi leksikasi"², X.Usmonov va S.Usmonovlarning ishlaridir.

Manbalar shu narsani ko'rsatadi-ki, 70-80-yillarda tilshunoslikning muammoli sohalaridan biri bo'lgan bu soha keyingi yillarda e'tibordan chetda qoldi. Hozirda ham so'zlashuv nutqi tushunchasi muommosi qay tarzda o'rganildi va qay tarzda o'rganilishi lozim edi deyilgan savolning yuzaga kelishi tabiiydir. Yuqorida qayd

¹ O'rinboyev B. "So'zlashuv nutqi sintaksisi" T. "Fan"

² Tursunpo'latov M. "Лексика узбекской разговорной речи" АКД. Т.1982

etilganidek, o'zbek tilshunosligidagi bir qator o'rganilishi kerak bo'lgan muommoli tomonlarga so'zlashuv nutqi hodisasi tushuchasini ham qo'shish kerakka o'xshaydi, bizning nazarimizda. Chunki, so'zlashuv nutqi hodisasini kundalik turmush nutqiga ("Rozgovornaya bytavaya rech", "Gorodskaya rech" "Shaharliklarning so'zlashuv nutqi") nutqining radio, televidenie nutqiga munosabati, so'zlashuv nutqidagi yuzma-yuzlik, emotsionallik, so'zlashuv nutqidagi psixik holat, ta'sirchanlik masalasi yetarli o'rganilmagan.

Manbalardan shu narsa ravshanlashadiki, shu kunga qadar o'zbek nutqi til faktoriga misol keltirish uchun tadqiq qilingan. Masalan: ma'lum morfologik forma keltiriladi. Shu formaga misol sifatida ma'lum matndan olingan misol keltiriladi. Aslida nutqning o'zi, ya'ni o'zbek nutqining o'ziga xos tomonlari yetarli o'rganilmagan. Demakki, nutq, til va nutq, nutqning muhim lingvistik bo'lmagan tomonlari, o'zbek nutqining turlari, stillari, ichki va tashqi, nutqning lingvistik, psixologik, mantiqiy, estetik, etikaviy tomonlari va ularning o'zaro munosabati, nutq vositalari va ularning o'zaro munosabati kabi hodisalar ilmiy ravishda o'rganilishi kerak.

O'zbek tilshunosligida o'rganilishi, ilmiy tadqiq etilishi kerak bo'lgan tomonlar hali ko'p. Ana shunday muammolardan biri o'zbek so'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolardir, ya'ni ilmiy ma'noda so'zlashuv nutqi muammosidir. So'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar, ularning shu nutqqa xoslanganlik tomonlardan o'rganilgan emas.

So'zlashuv uslubining badiiy, rasmiy, ilmiy, maktubiy, publitistik uslublariga munosabatini ilmiy ravishda o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida barcha qardosh tillar tilshunosligida bo'lgani kabi tilning sistemasini o'rganishga e'tibor qaratilmaganligini bir qator manbalar tasdiqlaydi. Shu tufayli ham o'zbek tilining morfologik, sintaktik strukturasi juda yaxshi o'rganilgan. Ma'lumki, til nutqda moddiy bazaga, real kuchga aylanadi. Til sistemasi nutqda reallashadi. Til nutqda chinakkam ijtimoiy hodisaga aylanadi, kishilarning o'zaro aloqa qilish quroli

vazifasini bajaradi. Tilshunoslarning qayd etishlaricha, til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa formasidir.³

Shu sababli ham tilni til, ya'ni material sifatida emas, nutqiy hodisa sifatida o'rganish tilni jonli, hayotiy holatda o'rganishdir.

Ma'lumki, nutq yakka tarzda yuzaga chiqadi. Uni ayrim, yakka bir kishi amalga oshiradi. Ko'rinadiki, nutq turli sharoitda, kishilarning aloqalari jarayonida yuzaga chiqadi. Ammo bu yakkalik umumtil sistemasi qoidalariga tayanadi va uning doirasida bo'lib, uni buzmaydi. Til hayotda yakka shaxs tomonidan amalga oshirilsa-da, tilda birgina kishi emas, ko'pchilik-butun bir xalq so'zlashadi.

O'zbek so'zlashuv nutqiga xos jargo va argolarning mavzu sifatida tanlashimizga asosiy sabab ham jargo va argo atamalari bir-biridan farqlanmagani, jargo va argolarning so'zlashuv nutqi hodisasi ekanligi, bu hodisalar adabiy nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisalar qatorida talqin etilmaganligidir.

Umuman tilning va nutqning o'zaro aloqasi yakka(individual) va jamoa nutqiy jarayonining murakkab ko'rinishlaridan iboratdir. Zotan, tilning boyish, taraqqiysi ayrim shaxsning nutqidan jamoa nutqiga, undan yana shaxsning nutqiga kabi ko'rinishda uzluksiz davom etadi.⁴

Ishning maqsadi va vazifasi. Ishimizning asosiy maqsadi birinchidan, o'zbek so'zlashuv nutqi leksikasining o'ziga xos tomonlarini, ikkinchidan, so'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolarning nutqdagi o'rini aniqlash, uchinchidan, jargo va argolar adabiy til normalariga halal beruvchi elementlar ekanligi, to'rtinchidan, ma'lum guruhlar nutqiga xos hodisa bo'lib, umum nutqidan farqlanuvchi hodisa ekanligini yoritishdan iboratdir.

Ishning ishlanish darajasi. Ma'lumki, jargo va argolar badiiy asar tilida ko'proq ishlatilsa-da, aslida bu tushuncha so'zlashuv nutqiga xos hodisadir. Chunki, jargo va argolar badiiy asarda personaj nutqida qo'llanilib, personaj nutqining ichki tomonlarini ochib berishda muhim xizmat qiladi.

³ Usmonov S. "Umumiy tilshunoslik" T.1972yil 151-bet

⁴ Vinokur T.K. Характеристика поэтика «Разговорная речь». «Русский язык в национальной школе» 1976№2

Jargo va argolar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar rus tilshunosligida, turkologik ishlarda, so'ngra o'zbek tilshunosligida, ya'ni o'zbek tili grammatikalarida, jumladan Sh.Shoadurahmonov va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida, M.Mirzayev, I.Rasulovlarning "O'zbek tili" kitobida, S.Usmonovning "O'zbek tili" kitobida, B.O'rinboyevning "O'zbek so'zlashuv nutqi" nomli monografiyasida, M.Tursunpo'latovning "Узбекская разговорная речь" nomli monografiyasida, G'.Sattorovning "Jargo va argolar" nomli maqolasida ma'lumotlar berilgan.

Malakaviy bitiruv ishim yuqoridagi ishlardan jargo va argolar tasniflanishi jihatidan ham, jargo va argo tushunchalarini farqlash jihatidan ham ajralib turadi. Yuqoridagi ishlarda jargo va argolar farqlanmaydi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti – so'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar, uning predmeti so'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolarni to'plash, nutqda ishlatilishiga ko'ra tasniflash va tahlil etishdan iboratdir. Tadqiqotni amalga oshirishda o'zbek tili bo'yicha yaratilgan qo'llanma va darsliklardan: S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, A.Muxtorov, Sh.Shoadurahmonov, M.Asqarova, E.Begmatov, M.Mirzayev, I.Ismatullayevlarning ishlaridan foydalandik.

Jargo va argo atamalarining ma'no jihatdan bir-biridan farqlashda "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalanildi. Ba'zi hollarda material sifatida jonli so'zlashuvdan ham foydalanildi.

Ishda yoritiladigan masalalar. Ushbu malakaviy bitiruv ishimizda quyidagilarni yoritishga harakat qildik:

- so'zlashuv nutqi tushunchasi;
- so'zlashuv nutqi leksikasi tushunchasi;
- so'zlashuv nutqi hodisasini xarakterlovchi oddiy muomalaga oid so'zlar, erkalov-kichraytuv so'zlari;
- so'zlashuv nutqining "Oddiy so'zlashuv tili" tushunchasiga munosabati;

- soʻzlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar haqida;
- yuqori tabaqa vakillari, oʻgʻrilar, bezorilar, savdogarlar, din peshvolari, xotin-qizlar, talabalar, oʻquvchilar nutqida qoʻllaniluvchi jargo va argolar.

Ishning amaliy tomoni. Ushbu malakaviy bitiruv ishimizning bir qator amaliy tomonlari mavjuddir:

- ushbu ishimizdan soʻzlashuv nutqi leksikasi bilan shugʻullanuvchi barcha kishilar;
- adabiy til, adabiy norma, adabiy tilning sofligiga xalal beruvchi holatlar bilan shugʻullanuvchilar;
- nutq madaniyati, oʻquvchi va oʻqituvchi nutqi madaniyati bilan shugʻullanuvchilar;
- tilning tabiati va mohiyati bilan shugʻullanuvchi kishilar;
- ona tili va adabiyot oʻqituvchilari badiiy asar tilini, uslublar mavzularini oʻtish jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

I. BOB

SO‘ZLASHUV NUTQI USLUBI TUSHUNCHASI HAQIDA

1.1. So‘zlashuv nutqi leksikasi tushunchasi qanday hodisa?

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda e‘lon qilingan va qilinayotgan ishlar yig‘indisi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida ham ilmiy, ham amaliy jihatdan tahlil etilishi lozim bo‘lgan bir qator masalalar mavjuddir. Badiiy asar lingvopoetikasi, badiiy matn tahlili, lug‘aviy polisemiya masalasi so‘zlashuv nutqi morfologiyasi, so‘zlashuv nutqining asosiy belgilari va mezonlari shular jumlasidandir. Ma‘lumki, ijtimoiy hodisa bo‘lgan til nutqda moddiy bazaga, real kuchga aylanadi.”Til sistemasi nutqda reallashadi.Til aloqa formasidir”⁵.Shu sababli tilni ham til, ya’ni material sifatida emas, balki nutq va nutqiy jarayon sifatida o‘rganish uni jonli, hayotiy holda o‘rganishdir.

O‘zbek tilshunosligida, turkologik manbalarda quyidagi ikki ko‘rinishi qayd etiladi:1.Adabiy nutq. 2.So‘zlashuv nutqi.Nutqning bu ikki ko‘rinishi o‘rganilish sohasiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi.

“So‘zlashuv nutqi” atamasi bilan yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmush, hodisalarining o‘zaro aloqa jarayonlarida amal qiluvchi nutqiy hodisadir.

So‘zlashuv nutqi manbalarda¹ qayd etilishicha, monologik va ko‘proq dialogik nutq shaklida yuzaga chiqadi. Shu narsani alohida qayd etish kerakki, so‘zlashuv nutqiga xos yetakchi nutqiy shakl birdan ortiqlik, ya’ni ikki yoki undan ortiq shaxslarning o‘zaro so‘zlashuvidan, fikr almashinuvidan yuzaga keluvchi holatdir. Keltirilganlardan ko‘rinadiki, so‘zlashuv nutqi uchun yetakchi nutqiy forma dialogikdir.

Arqub. Labbay xo‘jayin?

⁵ Usmonov S. “Umumiy tilshunoslik” Toshkent “O‘qituvchi” 1972.151-bet.

Abu Aza Bu yoqqa kel-chi... Menga kimningdir ovozi eshitilgandek bo'ldi... Nima, anavi ayol hali qaytmadimi?

Arqub. Qanaqa ayol? Uyimizning bekasimi? Hali qaytgani yo'q.

Abu Aza. O'zing qayoqlarga yo'qolib ketding?

Arqut. Hojat yuzasidan chiqqan edim.

Abu Aza. Vaqtni topibsan. Sen olamshumul lahzaga shohidlikdan quruq qolding. Sening sohibing taxtga chiqdi...(Sa'dulla Vannus, "Sulton baribir sulton." Jahon adabiyoti, 1999, noyabr, 61-bet).

Kuzatilgan manbalardan shu narsa oydinlashadiki, so'zlashuv nutqi deb yuritilayotgan hodisaning asosiy mohiyati, unga xos muhim lingivistik bo'lmagan belgilar, mezonlar hali tilshunoslik va sotsial lingivistikada yetarli darajada o'rganilmagan va o'z navbatida ancha muammoli, qator ilmiy izlanishlarni talab qiluvchi sohalaridan biridir.

So'zlashuv nutqi atamasi bir qancha ko'rinishlarda qo'llanilayotganligi ham bu sohaning yetarli o'rganilmaganidan dalolatdir. Masalan, dialogik nutq, adabiy tilning og'zaki shakli, og'zaki nutq, xalq jonli tili, dialektal nutq, kundalik turmush nutqi kabi. So'zlashuv nutqi hodisasini izohlash borasidagi bunday chalkshliklar rus, o'zbek, turkologik tilshunosligining ishlarida ham mavjuddir.

O'zbek tilshunosligida so'zlashuv nutqi hodisasini tadqiq etish oltmishinchi yillar o'rtalarida boshlandi. So'zlashuv nutqi hodisasining nutq shakllari, adabiy til va kundalik turmush jarayonlaridagi o'rni va roli masalasi ham tilshunoslikda turlicha ko'rinishlarda talqin qilinganligini ko'ramiz. Jumladan tilshunos B.O'rinboev so'zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlarini tahlil qilgan holda so'zlashuv nutqining quyidagi ko'rinishlarini keltiradi:

1. So'zlashuv nutqi - bu og'zaki nutq.
2. So'zlashuv nutqi - ishlanmagan, normalashtirilmagan og'zaki nutq.
3. So'zlashuv nutqi - adabiy tilning og'zaki adabiy so'zlashuv shakli.
4. So'zlashuv nutqi - funksional uslub ko'rinishlaridan biri.

5. So‘zlashuv nutqi - adabiy tilning og‘zaki shaklining uslub ko‘rinishlaridan biri.

6. So‘zlashuv nutqi - nutqiy formalardan biri.

7. So‘zlashuv nutqi - nutqiy tiplardan biri.

8. So‘zlashuv nutqi - adabiy til bilan jonli xalq so‘zlashuv tili o‘rtasida turuvchi nutq ko‘rinishlaridan biri.

9. So‘zlashuv nutqi - kundalik turmushda amal qiluvchi nutq turi.

10. So‘zlashuv nutqi - o‘ziga xos mustaqil, alohidalashgan nutqiy sistema⁶.

Xulosa shundan iboratki, so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos shakl va uslubga ega, mustaqil lingivistik belgilarga (leksik, sematik, grammatik xususiyatlarga) ega bo‘lgan nutqdir. So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos bo‘lgan funksional uslub ko‘rinishlardan biridir.

So‘zlashuv uslubi uchun: so‘zlarning diologik shakilda bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan har xil takrorlar, intanatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat’iylik, hazil) ning ko‘proq bo‘lishi, so‘zlashuv uslubi uchun xos bo‘lgan emotsional ekspressivlikning mavjudligi, so‘zlashuv uslubiga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko‘proq bo‘lishi, haqorat, erkalov, kichraytuv, oddiy muomalaga oid so‘zlarning ko‘proq bo‘lishidir⁷.

1.2. So‘zlashuv nutqiga xoslangan oddiy muomalaga oid so‘zlar

So‘zlashuv uslubida o‘zining barcha stilistik bo‘yog‘i bilan ajralib turadigan lug‘aviy birliklar so‘zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta’sirchanlik, erkinlik, vaziyatbobblik sezilib turadi.

Masalan, o‘zbek so‘zlashuv nutqida qo‘llaniluvchi “jigar” so‘zi (to‘g‘ri ma’noda inson, hayvon organizmining bir turi) umumnutqqa xoslangan so‘z bo‘lib, ko‘chma ma’noda “yaqin o‘rtoq”, “do‘st”, “jo‘ra”, “yaqin qarindosh”, “haqiqiy o‘zbek” kabi ma’nolarida oddiy so‘zlashuv nutqiga xoslangan birlikdir.

⁶ O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent. 1973, 4-5-betlar.

⁷ Tursunpo‘latov M. “Лексика узбекской разговорной речи” Toshkent. “Fan”. 1968, 84-bet

Soʻzlashuv uslubiga xoslangan oddiy muomalaga oid soʻzlarga quyidagilarni kiritish mumkin: tuzuk, binoyiday, nozaninay, avliyo, poshaxon, bijildoq, kelishgan, xushqomat, almoiy-aljoyi, avom, vojib, gardun, gumbaz, xoʻjayin, doʻndirmoq, minnat, mirquruq, naynov, xoin, savil, tepsa tebranmas, karmon koʻtarmaydi, gumonasi bor, dumbul odam va boshqalar.

Nutqda shaxslarni atash, ularga murojaat qilish, ularni taʼriflash, chaqirishda maʼlum tartib va qoidalar mavjud. Soʻzlashuv uslubining xarakterli xususiyatlaridan biri keltirilgan qonun va qoidalardan chetga chiqish hollarining mavjudligidir.

Soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan oddiy muomalaga oid soʻzlar semantik xususiyatlariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadilar:

1. Ijobiy maʼno anglatuvchi oddiy muomalaga oid soʻzlar.
2. Salbiy maʼno anglatuvchi oddiy muomalaga oid soʻzlar.

Ijobiy maʼno anglatuvchi oddiy muomalaga oid soʻzlarda soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan intim munosabati, soʻzlovchining zavq-shavqi ifodalanadi. Soʻzlashuv nutqida “chiroyli” tishunchasini ifodalash uchun kelishgan, xushqomat, xushroʻy, koʻrkam, bejirim, ketvorgan, lobar, kunduzdek, suluv soʻzlari ishlatiladi. Keltirilganlar ichida “chiroyli” soʻzi boshqalariga nisbatan neytral sanaladi. Xushroʻy soʻziga nisbatan goʻzal soʻzida, goʻzal soʻziga nisbatan qunduzday soʻzida ijobiylik ottenkasi kuchlidir. “Qunduzdek” soʻzida qoshu-koʻzini qunduzga nisbat berish, oʻxshatish, taʼriflash maʼnolari kuchlidir.

“Ketvorgan” soʻzi oddiy soʻzlashuv uslubiga xos forma, unda belgi –daraja kuchli, lekin ketvorgan soʻziga nisbatan goʻzal soʻzida, goʻzalga nisbatan kunduzday soʻzida ijobiy oltenka kuchlidir. Masalan: -Parda, men taklif qilgan goʻzal soat yettilarda keladi. Men unga gullar keltirib qoʻyishim kerak. (“Sharq yulduzi” 1999-y. Noyabr)

-Bilmay yurgan ekanman, xolamning qizi ketvorgan goʻzal qiz ekan (“Sharq yulduzi”).

Soʻzlashuv uslubiga xoslangan oddiy muomalaga oid salbiy maʼno ifodalovchi soʻzlarda soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan kinoyasi, pichingi,

nazar-pisand qilmaslik ottenkalari kuchli bo‘ladi. Masalan, “Xo‘jayin”, “kalompo” so‘zlari oddiy so‘zlashuv uslubiga xos forma bo‘lib salbiy bo‘yoqqa egadir.

-Uning ko‘z tanish kalompolari ko‘p.

-Kimga suyanadi?

-Ha, endi, bor-da.(N.Hayitqulov).

-Xo‘jayinda, xo‘jayin...A,Xo‘jayin ?! Yoqmadi shekilli?!(“Sharq yulduzi”).

Oddiy so‘zlashuv nutqida “Yemoq” so‘zining tanovul qilmoq, iste’mol qilmoq formalari mavjuddir. Bu so‘zlarning paqqos tushirmoq, paqqos urmoq, tatimoq, olmoq, tushurmoq kabi oddiy so‘zlashuv uslubiga xos formalari ham mavjuddir.Keltirilganlar ichida urmoq, tushurmoq, olmoq, formalari oddiy so‘zlashuvga xos forma bo‘lib, salbiy ma’no ottenkasiga egadirlar. Masalan, - Paqqos uribsan-ku Bo‘dir! (M.Qoriyev). –Bemalol tushuraveringlar, men hozir kelaman. (K.Yashin). Sodiq. Qo‘lbola masallas ekan, paqqos tushurdilar. (Uygun). Ammo ulomolar go‘yo uch kundan beri tuz tatishmaganday laziz ovqatlarga chigirtkaday yopirilib ura ketdilar. (Oybek).

So‘zlashuv nutqida ovoz chiqarmay ko‘z, lab harakatlari bilan kulgi ifodalash uchun jilmaymoq, tirjaymoq, irjaymoq so‘zlari stilistik jihatdan neytral so‘zlar sanaladi. Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq so‘zlari oddiy so‘zlashuv nutqiga xos formadir.

So‘zlashuv nutqida bir qator: boshida yong‘oq chaqmoq, ochiq mozorda, jon bermoq, qaysi go‘rda, dardisar, jinidan basir bo‘lmoq, og‘iz ochmadi, do‘ppisi tor keldi, boshi qotdi, boshini qotirdi kabi bir qator oddiy muomalaga oid iboralar ham ishlatiladi.

So‘zlashiv nutqining tayyorgarliksiz nutqligi, erkin, betakalluf, bevosita nutqligi, uning yakka shaxs tomonidan aytilib kimgadir qaratilganligi aslida uning situativ holatlarini ifodalaydi.

So‘zlashuv nutqidagi situatsiya va situativ holatlar ikki ma’noda tushunilishi mumkin. Birinchidan, so‘zlashuv nutqini yuzaga keltiruvchi situativ

shartlar, holatlar. Ikkinchidan, so‘zlashuv nutqi jarayonining nutq so‘zlanayotgan holatda yuz beruvchi situatsiyaga ko‘ra o‘zgarishi va turlanib turishi bilan xarakterlanadi.

-Chimboyda to‘qilgan bo‘zga kelinglar!

-Qo‘ng‘irot ustalari yasagan charxlar, bellar, ketmonlar bormi?

-Bo‘zatovning shirin-shirin olmalari, mazali olmurtlari, tami tilni yoradigan qindek qovunlariga kep qoling!

-Bo‘zatovning mevalari, qovun-tarvuzlari qishga chidamli bo‘ladi, - deyishadi...

-Xivaning shamchiroqlari bor!

-Xo‘jaylining lampochkalaridan-chi? (T.Qaytbergeniv “Sahro bulbuli”, “Jahon adabiyoti” 2002-yil. Yanvar).

1.3. So‘zlashuv nutqi uslubi tushunchasi

Nazariy va ilmiy adabiyotlari so‘zlashuv nutqi, og‘zaki nutq, dealektal nutq, adabiy tilning og‘zaki shakli atamaları bilan bir qatorda so‘zlashuv nutqi uslubi, so‘zlashuv nutqi uslubining funksional uslublarga munosabati kabi tushunchalar keng qo‘llanganligini ko‘ramiz.

Ma'lumki, til har tomonlama o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Qadim-qadimdan insonoyatning tili paydo bo‘lgan davrdan e'tiboran, ya'ni yozuv paydo bo‘lgan kuniga qadar insonlarning asosiy aloqa vositasi so‘zlashuv nutqi bo‘lganligini inkor etib bo‘lmaydigan holat ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Yozuv paydo bo‘lgandan dastlabki sodda so‘zlashuv nutqi turli yozishmalarda (tugun yozuvi, buyum yozuvi, rang yozuvi, piktografik yozuvi, iogriflar va nihoyat alfavit) xatlar janrida, folklor asarlari tilida o‘z izini qoldirdi. Tilshunoslarning qayd etishlaricha, qog‘ozdagi yozuvlarning barchasi yozma nutq bo‘lavermaganidek, talaffuzdagi barcha og‘zaki vositalarni ham so‘zlashuv nutqi elementlari deb aytish mumkin emas.

So‘zlashuv nutqiga xoslangan vaziyatboblik, erkinlik, norasmiylik, hozirjavoblilik, etikaviy, estetik vositalarini ta'minlovchi intonatsiya, pauza,

mimika, imo-ishora kabi holatlar, ko'chma ma'no nozikliklari, frazealogik iboralarning ko'pligi, nutq jarayonida qisqa (chala) uslubga xos qisqaliklarni ta'minlovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalar ham keng qamrovda o'rganilishi kerak bo'lgan sohalardandir.

Tilshunos M.Asomiddinovaning qayd etishicha, so'zlashuv nutqining quyidagi masalalari o'rganilishi kerak:

1. So'zlashuv nutqi quyi stil (uslub) kundalik turmush nutqi sifatida M.V.Lomonosov o'zining "Ritorika" asarida quyi uslubga quyidagilarni kiritadi;
2. So'zlashuv nutqi maxsuslashgan, o'ziga xos sistema sifatida;
3. So'zlashuv nutqi barcha stillararo funksiya o'tovchi nutqiy til sifatida;
4. So'zlashuv nutqi adabiy tilning nutqiy ko'rinishlari sifatida;
5. So'zlashuv nutqi adabiy tilning og'zaki shakli bilan aloqador nutqiy til sifatida;
6. So'zlashuv nutqi yarim dealekt sifatida;
7. So'zlashuv nutqi adabiy tilni to'ldirib turuvchi nutqiy vosita¹ sifatida .

Rus tili lug'atlarida raz. (razgovornaya rech) belgisi bilan umuman so'zlashuv nutqi tushunilsa, prostorechiye - belgisi bilan sodda so'zlashuv nutqi birliklari ifodalanadi. Shuning uchun ham so'zlashuv nutqi uslubini uning tarkibiga kiruvchi kundalik turmush nutqi yoki sodda so'zlashuv nutqi elementlari bilan tenglashtirish mumkin bo'lmagan bir holdir.

Jonli so'zlashuv nutqi va unga aloqador nutqiy birliklar leksikografiyada quyi uslub belgisi bilan yuritiladi. Badiiy asar tilining jonliligi, ta'sirchanligi ana shu nutqiy birliklarning qatnashishi bilan baholanadi.

So'zlashuv nutqi bilan quyi uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ko'pchilik tilshunos olimlar quyidagicha ko'rsatadilar:

1. So'zlashuv nutqi so'zning turli-tumanlikka ega bo'lgan jonli faoliyati bo'lib, u norasmiy, erkin kommunikativ munosabatda funksiya o'taydi.
2. Quyi uslub adabiy tilda maxsus sistemaga ega bo'lib, u qarg'ish, so'kish, kulish, erkalash, nafratlanish kabi bir to'da bo'yoqdor vositalarni o'z ichiga oladi.

3. Quyi stil o'zining maxsus grammatik sistemasiga ega emas: faqat unga xos ayrim leksik-frazeologik birliklar quyi stil belgisi bilan adabiy tilda turli vazifalarni o'taydi. So'zlashuv nutqi esa, o'ziga xos nominativ (atash) vositalariga, o'zining leksik-fraziologik, grammatik belgilariga ham egadir.⁸

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi boyliklarining ma'lum qismini sodda so'zlashuv belgisi dag'al, qo'pol, so'kish, nafratlanish, suyish, erkalsh, hazil, piching kabi modal ma'noli emotsional buyoqli so'zlar hamda kundalik jonli so'zlashuvga xos so'zlashuv belgisi bilan yuritiluvchi so'zlar tashkil etadi. So'zlashuv nutqi leksik vositalarni neytral variantlariga solishtirilganda ularning o'ziga xos bo'yoqdorligi seziladi. Bular: zarda (jahl), barzangi (haybatli), betamiz (farosatsiz), mahmadona (sergap), bola-baqra(oila a'zosi), bordi-keldi (yaqin munosabat), bosqi (tug'ma kasal), bo'ydoq (uylanmagan), dalli-g'ulli (ko'ngli ochiq odam), oldi-qochdi (yolg'on-yashiq), irkit (isqirt), pattachi (bilet sotuvchi), qaysar (o'jar), uvada (juldur kiyim), chiqim (sarf-harajat), sandiraqlamoq (ko'cha ko'yda bekor yurmoq). 1. Rivoyat qilinishicha, Pahlovon Mahmud dalli-g'ulli odam bo'lgan ("Jahon adabiyoti"2010). 2. Oriyati kuchlilik qildi, Eshmatvoy bola-baqrasi bilan cho'lga ko'chib ketdi. 3. Bu qaysar odamlar aytganlarini qilishdi. Mingboshining uyiga o't qo'yishdi. 4. Hozirda qiz to'ylarining chiqimi borgan sari ko'paygandan-ko'payib bormoqda. 5. Ular ko'p yillardan beri bordi-keldi qilishar, o'rtalarida hech qanday sir yo'q edi. 6. Nima bo'ldu-yu, oralariga qora mushuk oraladi.

Kommunikativ munosabatlarda, ayniqsa, ironiya, askiya, so'z o'yini, kinoya va shunga o'xshash turli xil assotsiativ aloqalarda sodda so'zlashuvga oid birliklarning rolini alohida qayd etmoq kerak.

Kundalik turmish nutqida keng iste'moldagi so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi ham ekspressiv ma'nolarini yuzaga keltiradi. Masalan: Kun bo'yi yoqqan yomg'ir bizni kompot qilib yubordi. Bugun yonayapti, tiqilinch

⁸ Zemskaya Ye.A., Kitaygorodskaya M.V, Shariyev Ye.N. "Русская разговорная речь" М.1981 .

avtobusda shashligimiz chiqib ketdi. Keltirilganmisollarda qiynalish, ezilish, azoblanish ma'nolari salbiy bo'yoqdorlikifodalagan kompot, shashlik so'zlariga yuklatilgan.

Kundalik turmushga oid sodda so'zlashuvda dag'al so'zlar - g'alamis, qavoqbosh, xotinboz, g'arvachchca, lattachaynar, cho'loq kabi salbiy bo'yoqli so'zlar insonlarning xarakteri, tashqi qiyofasi, mijozidagi kamchiliklarini ifodalashda qo'l keladi. Masalan: -Bu g'alamislar, -dedi chol, ikki-uch kundan beri qishloq atrofida o'ralashib yurishuvdi. ("Sharq yulduzi" 80-bet). -Sen bola, -dedi direktor qo'lidagi ruchkani o'ynab, lattachaynarlik qilmada, bo'ladigan gapni gapir. ("Sharq yulduzi" 75-bet).

Ko'rsatilgan tor doirada qo'llaniladigan dag'al, salbiy ottenkali so'zlar badiiy asar tilida vaziyat talabi bilan ishlatilib turiladi. Aslini olganda adabiy so'zlashuv munosabatlarida vulgarizmlarni (haqorat so'zlarni) ishlatib nutqiy estetikaga, nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy asar tili jonliligi, ta'sirchanliligi, obrazliligini ta'minlovchi kundalik sodda nutq vositalari, dealektizmlar, jargon, argolar, personajlar nutqida ba'zi so'zlarning noo'rin qo'llanish hollari ekspressivlikni ta'minlaydi. Bular quyidagicha: a) so'zlarni buzib talaffuz qilish. Masalan: Eshmato'p-chi, Eshmato'p. O'sha kuni kettila; b) o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish: - Ho o'rtoq nachali, sizni telepunda so'rashayapti; d) dealektal so'zlarni qo'llash bilan: Otni ot qilaturg'on narsa andiz, - dedi chol; e) argo, jargo, dag'al so'zlarni qo'llash bilan: -Sen xaromi, bir kunmas-bir kun pirimning duoyibadiga qolasan. Ikki qishloqini yaxshilab sochini oldik.

- G'amza bilan jonim oling.

Katmonda (kistada) darmon qolmadi ("Mushtum").

So'zlashuv nutqiga xos vositalarning bir qismini murojaat so'zlari, emotsional undovlar tashkil etadi. Emotsional undovlar kishilarning psixologiyasi bilan bog'liq holda tug'iladigan rang-barang ruhiy holatni, his-hayajonni, subyektning obyektga bo'lgan munosabatini anglatish uchun xizmat qiladi. Ularda zavqlanish, quvonch, xursandlik, achinish, shafqat, hayrihohlik,

mamnunlik, huzur, ajablanish, hayratlanish, taajjub , qoyil qolish, shodlanish, minnatdorchilik, qo‘rqish, cho‘chish, afsuslanish, norozilik, e‘tiroz, jirkanish, nafratlanish, alam, vaxima, tanbeh kabi xilma-xil ma'nolarni ifodalaydi.⁹ Masalan: -Eh, attang, attang. Odamlarning bunchalik bezbet bo‘lib ketganlarini qarang-a! - Voy, bolajonimey, senga nima bo‘ldi, bolajonimey (O.Yoqubov).-Bu dardisarlari yana kelishibdida, endi nima qilamiz? ("Sharq yulduzi"). -Pochchajon, siz meni odam qilgansiz, unutmaysan, pochchajon (S.Ahmad).-Bularning dastidan dod! dod! Men qachongacha bularning dardi bilan yashayman? ("Sharq yulduzi" , 2-son). -Obbo ezmagurguchey, bir gapga tushgandan keyin odam bolasi to‘xtatolmaydi (J.Sharipov).

Nutqiy estetikaga amal qilgan har qanday kishi, ya'ni so‘zlovchi o‘z nutqida tinglovchini ranjitmaslik maqsadida qo‘pol, yoqimsiz, odobsiz deb topilgan noqulay so‘z va iboralar o‘rnida ularning yoqimli variantlarini qo‘llashga harakat qiladilar. Bu holat tilshunoslikda tabular o‘rnida qo‘llaniluvchi efimizmlar nomi bilan yuritiladi., bu leksik birliklarning tilshunoslikda bu sohaning o‘z o‘rni va o‘z tarixi bor.

1.4. So‘zlashuv nutqining oddiy so‘zlashuv nutqi, “sodda tilga” munosabati

Ma'lumki, nutq ikki formaga ega: nutqning og'zaki formasi, nutqning yozma formasi. Ba'zi manbalarda so‘zlashuv nutqi nutqiy formaning ko‘rinishidan biri sifatida talqin etish uchraydi. Bunda so‘zlashuv nutqi umuman, og'zaki tilning yoki adabiy til og'zaki shaklining so‘zlashuv formasi sifatida talqin etiladi. Agar so‘zlashuv nutqiga og'zakilik nuqtai-nazaridan yondashiladigan bo‘lsak, yuqorida qayd etilganidek, so‘zlashuv nutqi og'zaki nutq, og'zaki shakldagi nutqlardir. Bu xususiyat so‘zlashuv nutqining yetakchi belgilaridan biridir. Ma'lumki, tilning bir qator yashash formalari og'zakilik shakliga ega. Masalan, sheva va dialektlar, adabiy tilning dialogik bo‘lmagan og'zaki formalari (yozilmagan og'zaki so‘zlangan ma'ruza shaklidagi ko‘rinishi va boshqalar).

⁹ Sirotinina O.B. “Современная русская речь” Moskva 1977. 77-bet. “O‘zbek tili grammatikasi” 1-qism.Toshkent 1977. 592-bet

Demak-ki, soʻzlashuv nutqi ogʻzaki nutqqina emas, balki oʻziga xos bir qator belgilar bilan xarakterlanuvchi ogʻzaki dialogik nutqdir. Shu tufayli soʻzlashuv nutqini nutqiy forma deb yuritish borasida ham chalkashliklar borligi manbalarda qayd etiladi. Bu haqidagi mulohazalarga toʻxtab oʻtish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy tilning ogʻzaki shakli va soʻzlashuv nutqi shakli haqida yozilgan ishlarning koʻpchiligida keyingi hodisa adabiy til ogʻzaki shaklining koʻrinishlaridan biri sifatida talqin etiladi. Chunonchi, milliy tilning adabiy normalari haqida soʻz yuritgan M. Guxman adabiy tilning ogʻzaki shakli uchun talaffuz normalari muhim ekanligi qayd etadi.¹⁰

Tilshunos A.G.Shirokovaning taʼkidlashicha, adabiy tilning soʻzlashuv formasidagi (ogʻzaki va yozma shaklda) bir qator oʻziga xos grammatik, sintaktik, leksik xususiyatlarga tayanib alohida mustaqil strukturual hodisa deb baholanadi.¹¹

Shu tufayli ham soʻzlashuv nutqiga xos elementlar kuchli boʻladi. Bordi-yu, xalq soʻzlashuv tili adabiy tili orasida farq kuchli boʻlsa,

adabiy tilning soʻzlashuv formasining yuzaga kelishi va shakllanishi shunchalik qiyin kechadi. Keltirilgan holatlarda, asosan, gap adabiy tilning ogʻzaki shakli haqida borayotgani aniq.

Kuzatilgan adabiyotlarda "Adabiy tilning ogʻzaki shakli " iborasi keng tarqalganligi koʻrinadi. Baʼzi tadqiqotchilar esa, ushbu iborani kengroq maʼnoda adabiy tilning ogʻzaki shakli tushunchasini ifodalash uchun ishlatganlar. Chunonchi, G.I.Serdyuchenko¹² oʻz ishlarining birida adabiy tilning oʻgzaki soʻzlashuv formasi har bir millat tilning shakllanish davrida , albatta, normalanishi lozimligini qayd etadi. Bunday holatda ogʻzaki nutqning talaffuz normalarini normallashtirish muhim oʻrin tutishi tabiiydir.

¹⁰ .Guxman M. "Норма литературного языка". 1978.

¹¹ Shirokova L.G. "Из история развития литературного языка". 1976.36-bet.

¹² Serdyuchenko G.I. "Национально языкознание" Москва.1975 13-bet.

"So'zlashuv nutqi" hodisasini keltirilganlarga yaqin holatda talqin etish L.I.Barinnikovaning¹³ ishlarida ham ko'zga tashlanadi. U "So'zlashuv nutqi"ni adabiy tilning alohida ko'rinishi deb baholaydi. L.I.Barinnikovaning qayd etishicha, milliy til shakllanishining dastlabki etaplarida kundalik turmush nutqi adabiy til doirasidan chetda qolgan bo'ladi. L.I. Barinnikovaning fikrini xulosalaydigan bo'lsak, u "So'zlashuv nutqi" atamasi bilan tilning og'zaki shaklini ko'zda tutadi.

Tilshunos Laptiyeva¹⁴ o'z maqolalaridan birida adabiy til og'zaki shaklining chegaralarini shartli ravishda hozirgi rus adabiy tilining "Og'zaki so'zlashuv ko'rinishi" tariqasida nomlashni taklif etadi. Adabiy tilning og'zaki-so'zlashuv ko'rinishi tilshunos L.I.Barinnikova til va dialektning chegarasini belgilashdga bag'ishlangan ishlarining birida milliy til shakllanganidan keyingi davrda dialektning barcha funksiyalarini "Kundalik turmush nutqi" to'g'rirog'i "Odatiy turmush nutqi" bajargan, degan mulohazani bayon etadi. Uning qayd etishicha, bu davrda dialektning ichida stilistik -funktional birlik mavjud bo'lgan. Bular: 1.So'zlashuv turmush nutqi. 2.Xalq poetik nutqi. 3.Odatiy nutq elementlaridir.¹⁵

Demak-ki, dialektidagi asosiy funksional-uslubiy til-bu so'zlashuv turmush nutqi bo'lib, bu neytrallashda xalq poetik tili va kundalik odatiy nutq elementlari mavjudligini ko'rsatadi.

So'zlashuv turmush nutqi adabiy til darajasidagi og'zaki adabiy so'zlashuv nutqidan farqli nutqdir. L.I. Barinnikovaning fikricha, kundalik so'zlashuv nutqi dialektal nutq ichidagi komponentlardan biridir. Ammo F.P. Filinning qayd etishicha, so'zlashuv turmush nutqi normalangan formaga ham ega bo'lishi mumkin. Bu o'rinda F.P. Filin¹⁶ so'zlashuv nutqini emas, adabiy tilning og'zaki so'zlashuv shaklini ko'zda tutayotganligi aniq.

¹³ Barinnikova L.I. "Социально-историческая обусловленность место разговорной речи и общенародном языке". Moskva 1980.167-bet.

¹⁴ Laptiyeva O.A. "О Некозификсированных сферах современного русского литературного языка".44-bet.

¹⁵ Barinnikova L.I. "О разграничения языка и диалекта" Moskva.1978.172- bet

¹⁶ Filin F.I. "О норме литературного языка" 1980.46-bet

Adabiy tilning og'zaki shakli juda murakkab hodisa bo'lib, uning paydo bo'lishi va shakllanishi, bir qator xalqlar adabiy tilining rivojlanish tarixida yaqqol ko'rinadi. Bu hol ikki o'suvchan tendensiyada yuzaga chiqadi:

a) adabiy til yozma shaklining xalq so'zlashuv nutqiga tayanishi;

b) xalq so'zlashuv og'zaki nutqining yozma nutq doirasiga ko'tarish va uni umummilliy munosabatga yagona, ya'ni monolit bo'lishini ta'minlash asosida.

Shunqay qilib yuqorida qayd etilgan mulohazalarga e'tibor beradigan bo'lsak, "So'zlashuv nutqi", "So'zlashuv ", "So'zlashuv tili", "Sodda til", "Sodda nutq" tushunchalari izohlanganligi yaqqol seziladi. Ayniqsa, "Og'zaki so'zlashuv nutqi", "Kundalik so'zlashuv nutqi", "So'zlashuv xalq tili ", "Kundalik xalq so'zlashuv tili", "Shaharliklar nutqi" tilshunoslikda keng qo'llangan bo'lib o'zbek tilshunosligida faqat so'zlashuv nutqi aspektidagina ish qilingan.

O'zbek tilshunosligida o'zbek nutqining o'zi maxsus hodisa, maxsus kategoriya sifatida kam o'rganilgan. Bunda nutq, nutq va til, nutqning muhim lingvistik bo'lmagan tomonlari, o'zbek nutqining tiplari, turlari, nutqning psixologik, mantiqiy, estetik, etikaviy tomonlari va ularning o'zaro munosabatlari, o'zbek nutqiga xos vositalar, ularning o'zaro munosabati kabilar kam o'rganilgan muommolardandir.

Aslida "So'zlashuv nutqi" deb yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmushda, kishilar o'zaro aloqa jarayonlarida amal qiluvchi nutqiy holatdir. So'zlashuv nutqi tilshunoslarning qayd etishlaricha, monologik va dialogik nutq shaklida yuzaga chiqadi. Ammo so'zlashuv nutqiga xos yetakchi nutqiy shakl birdan ortiq, ya'ni ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro so'zlashuvida yuzaga keluvchi holatdir. Demak, so'zlashuv nutqi uchun yetakchi nutqiy forma dialogdir.

O'zbek, rus tilshunosligida, turkologiyada bu borada bajarilgan ishlar tahlil qilinganda so'zlashuv nutqini o'rganish hozirga qadar uch muhim aspektida olib borilganligi ko'zga tashlanadi:

1. Dialektal so'zlashuv nutqini tekshirish yoki boshqacha aytganda, so'zlashuv nutqining xususiyatlarini dialektal nutq materiallari asosida o'rganish.

2.Diologik nutqni tekshirish. Bunda adabiy so‘zlashuv tili va nutq hodisalarini, materiallarini o‘rganish.

3.Shaharliklar nutqini, ya’ni shaharliklarning so‘zlashuv nutqini o‘rganish.(O‘zbek tilshunosligida shaharliklar nutqi hodisasi so‘zlashuv nutqi hodisasi sifatida o‘rganilmagan).

So‘zlashuv nutqini dialektal so‘zlashuv aspektida o‘rganishda N.V.Shvedova¹⁷, T.G.Vinokur¹⁸larning ishlari muhim sanalsa, o‘zbek tilshunosligida professor E.Begmatov, professor B.O‘rinboyev¹⁹, M.Tursunpo‘latovlarning ishlari muhimdir.Shahar aholisining so‘zlashuv nutqini o‘rganish ishini tilshunos B.A.Larinning nomi bilan bog‘laydilar.Shaharliklar nutqini tadqiq qilishning ba’zi lingvistik va sotsiologik tomonlarini o‘sha davr talablari doirasida izohlab bergan.Keyinchalik ushbu aspektda rus tilshunoslaridan V.I.Sobinnikova, N.I.Potapova va boshqalar shaharliklarning oddiy so‘zlashuv tilini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ishlarida, maqolalarida bu boradagi mulohazalar rivojlantirilganligini ko‘ramiz.

”So‘zlashuv nutqi” hodisasiga bag‘ishlangan bir qator ishlarda bayon etilgan mulohazalarni o‘rganib chiqqan holda quyidagicha talqin etishni taqozo etadi:

- 1.So‘zlashuv nutqi - tilning funksional ko‘rinishlaridan biri.
- 2.So‘zlashuv nutqi - tilning uslubiy ko‘rinishlaridan biri.
- 3.So‘zlashuv nutqi - nutqiy formalardan biri.
- 4.So‘zlashuv nutqi - oddiy tilning (”Sodda til”, ”Sodda nutq”) og‘zaki ko‘rinishlaridan biri ekanligi.

5.So‘zlashuv nutqi - kundalik turmush nutqi – ”obxodnaya rech”, ya’ni oddiy xalq tiliga xos uslub ekanligi.

¹⁷ Shvedova N.V. ”Очерки по синтаксису русской разговорной речи”.Moskva. 1963

¹⁸ Vinokur T.G. “Некоторых синтактических особенностях диалогической речи в современном русском языке”. Moskva. 1963.

¹⁹ O‘rinboyev B., Begmatov E.A. “So‘zlashuv nutqi problemalari” (to‘plam). Samarqand. 1973. 5-6-betlar.

So‘zlashuv nutqi hodisasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, so‘zlashuv nutqi hodisasini quyidagicha tushunish mumkin:

1. So‘zlashuv nutqi - diologik nutq.
2. So‘zlashuv nutqi – bevosita yuzma-yuz nutq.
3. So‘zlashuv nutqi – erkin betakalluf nutq.
4. So‘zlashuv nutqi – tayyorgarliksiz, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlanuvchi nutq.
5. So‘zlashuv nutqi – vaziyatbob nutq.

So‘zlashuv nutqi uslubi o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egadir. Tilshunoslik ushbu leksik xususiyatlar yuzasidan so‘zlashuv nutqi uslubi aspektida hali chuqur tadqiqot ishlari olib borishni talab etadi. Turkologiyada, jumladan o‘zbek tilshunosligida evfemizmlar, taqlidiy so‘z va undovlar, frazeologizmlar va takroriy so‘zlar yuzasidan maxsus tekshirish ishlari olib borilgan. Ammo bu ishlarda so‘zlarning mana shu guruhini tug‘diruvchi omillar, nutqiy vaziyat va uslub yuzasidan aytilgan fikrlar kam uchraydi. Xolbuki, keltirilgan so‘z guruhlarining tug‘ilishi va ishlatilishi so‘zlashuv uslubi, nutqning so‘zlashuv tipi bilan aloqadordir. Shu sababli, til lug‘at tarkibidagi bir qator leksik xususiyatlar so‘zlashuv nutqining tabiati bilan bog‘liq holda o‘rganilmog‘i kerak.

Ishning bu bobida o‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasini xarakterlovchi so‘z guruhlari- erkalov-kichraytuv so‘zlari, ko‘chma ma’noli so‘zlar, piching- kinoya anglatuvchi so‘zlar, jargonlar, evfimizmlar va frazeologizmlar analiz qilinadi.

1.5. So‘zlashuv nutqiga xoslangan erkalov-kichraytuv so‘zlari

So‘zlashuv nutqi jonli, hayotiy va turmush nutqidir. Unda kishilarning kundalik turmushi o‘zaro munosabatlari, bundagi ijobiy, salbiy xususiyatlar o‘z ifodasini topadi. So‘zlashuv nutqida so‘zlovchilarning psixik olami, holati ham mujassamlashgan bo‘ladi. Shu tufayli so‘zlashuv nutqida

kishilarning o‘zaro munosabati va psixik holatlarini ifodalovchi so‘zlar ko‘p ishlatiladi. Mana shunday leksik guruhlardan biri so‘zlashuv nutqida keng qo‘llanuvchi **erkalov-kichraytuv** so‘zlaridir.

So‘zlashuv nutqiga xoslangan erkalov-kichraytuv so‘zlari gapdagi vazifalari va ishlatilish xususiyatlariga ko‘ra so‘zlashuv nutqiga xoslangan boshqa tip so‘zlardan farq qiladi. Chunki, bunday so‘zlarda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan ijobiy-intim munosabati, sevishi, erkalashi namoyon bo‘ladi.

Erkalov-kichraytish ma’nosini ifodalovchi leksikaga shunday so‘zlarni kiritish mumkin: bo‘tam, erkam, do‘ndiqcham, bolaginam, qalqoncha, yulduzcha, ayajon, bibijon, qoqijon, dugonajon, o‘rtoqjon, xonim va boshqalar.

Yuqoridagilardan tashqari so‘zlashuv nutqida –cha, -boy, -loq, -kay qo‘shimchalari, do‘ndiq, tantiq, tansiq kabi so‘zlar kishi nomlari bilan kelib erkalov-kichraytuv ma’nolarini ifodalaydilar. Masalan: -Bolaginam, meni tashlab qayoqqa ketayabsan? (R.Fayziy). Kaminaning bittagina qizaloqlari bor (I.O‘ktam). – Qani ayt-chi, bolakay, kimsan, qayerliksan, qanday qilib bu yerga kelib qolding? (H.Nazir).

Keltirilgan misollarimizdagi “bolaginam”, “qizaloq”, “bolakay” so‘zlarida kichraytish-erkalash ma’nolari mavjud bo‘lib, ushbu ma’nolar “ginam”, “cha” affikslari yordamida ifodalangandir.

So‘zlashuv nutqida uchrovchi erkalov-kichraytuv anglatuvchi so‘zlarni ularning qo‘llanish doirasi va ma’nosiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga ajratish mumkin:

- a) Qon-qarindoshlik munosabatini ifodalovchi erkalov-kichraytuv so‘zlari: bolaginam, qo‘zichog‘m, oppog‘im, onaginam, otaginam, onajon, buvijon va boshqalar.
- b) Do‘stlik-qadrdonlikni ifodalovchi erkalov so‘zlari: o‘rtoqjon, dogonajon, jo‘rajon, birodarginam, do‘stginam.

- c) Intim muomala bildiruvchi erkalov soʻzlari: jonginam, sevgilim, vafodorim, xonim, azizam va boshqalar.

1.6. Qon-qarindoshlik munosabatini ifodalovchi erkalov soʻzlari

Qon-qarindoshlik soʻzlari oʻziga xos maʼnolarga ega boʻlib, umumturkiy asosga egadir.

Qon-qarindoshlik haqidagi fikrlarni A.A.Yuldashev²⁰, L.A.Pokrovskaya²¹, M.Kazembek²², A.Gʻ.Gʻulomov, I.Ismoilov²³, B.Oʻrinboyev²⁴, A.Ishayevlarning ishlarida uchratamiz. Ushbu ishlarda qon-qarindoshlik terminlarini tarixiy va hozirgi qoʻllanushi, ularning xarakterli xususiyatlariga koʻra gruppalanishlari, vokativ formada qoʻllanishlari xususida fikr yuritiladi.

Oʻzbek tili soʻzlashuv nutqida keng qoʻllanuvchi baʼzi erkalov-kichraytuv soʻzlari quyidagilardir.

Boʻtalogʻim. Bu forma qarindoshlik terminlari bilan parallel holda qoʻllaniladi va erkalash, sevish, kichraytish maʼnolarini anglatib keladi. Masalan: -Nima ham qilardim, - dedi bobo yerga qarab, - nasibang oʻsha yoqlarga sochilgan ekan. Oʻtlan, boʻtalogʻim, hayallama (A.Muxtor).

Senmisan! Boʻtalogʻim! (A.P.Chexov).

Tilda oʻgʻil va qiz terminlari bola soʻzi bilan bir soʻz birikmasini tashkil etadi²⁵. Ushbu soʻzga tegishli affikslar qoʻshilishi bilan –gina, -ginam, -cha kichraytish, erkalash maʼnosi ifodalanadi. Masalan: -Bolaginam! Meni tashlab qayoqqa ketayapsan! (R.Fayziy).

Misolimizdagi “bolaginam” soʻzida qarindoshlik, qaradhlilik, kichraytish-erkalash maʼnolari mavjuddir. Keyingi maʼno affiks orqali reallashgandir.

²⁰ A.A.Yuldashev «Звательные слова в русских языках» М.,1965.

²¹ L.A.Pokrovskaya «Историческое развитие лексики тюркских языков» М.,1961.

²² M.Kazembek «Общая грамматика турецко-татарского языка» 1986. Str.455.

²³ I.Ismoilov «Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari» T.,1966.

²⁴ B.Oʻrinboyev. «Hozirgi oʻzbek tilida vokativ kategoriya» T.,1972.

²⁵ B.Oʻrinboyev. “Hozirgi oʻzbek tilida vokativ kategoriya” T.,1972, 60-bet.

“Ona”so‘zi bilan o‘zaro so‘zlashuv nutqida o‘z onasiga va har qanday qariroq ayolga ham murojaat qilinadi.Murojaat va chaqirish formulasi ifodalanganda ona so‘zidan keyin “subyektiv baho” affikslari va egalik hamda ko‘plik affikslari qo‘shilib kelishi mumkin.Masalan: Assalomu alaykum onajon!(“Saodat”) – Onajon! Shu burgaxona qo‘rada nima bor? (N.Safarov).

So‘zlashuv nutqida – gina affiksi ham so‘zlarga qo‘shilib kelishi natijasida erkalash-kichraytish ma’nolarini ifodalaydi.Masalan:Mana hozir akaginasi po‘lat qushga minib, Yangiobod qishlog‘i osmonida javlon urayotibdi (H.Nazir).

-Loq affiksi ham so‘zlarga qo‘shilib kelib erkalash, sevish, kichraytish ma’nolarini ifodalaydi. Masalan:Qizaloq bo‘lsa ular ortidan sakrab-sakrab chopib zo‘rg‘a yetib olardi (N.Nosov).Kaminaning bittagina qizaloqlari bor (I.O‘ktamov).

Toyloq so‘zi. Sozlashuv nutqida yosh jihatidan kichik bo‘lgan o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘llaniladi va erkalash-sevish ma’nolarini ifodalaydi.Masalan: Baxtinga sen omon bo‘l, toylog‘im! (“Sharq yulduzi”).

-toy affiksi kishi nomlariga qo‘shilib kelib, sevish-erkalash ma’nolarini ifodalaydi.Masalan: -E, kel, chirog‘im, kel, Karimtoy, - dedi Salimbobo (T.Rasulov).

Qo‘zichog‘im so‘zi yosh bolalarga nisbatan ota-onalar tomonidan o‘zaro murojaatda qo‘llaniladi.Bunday holatda sevish-erkalash, o‘xshatiah, qiyos berish ma’nolari anglashiladi.Masalan:Isoq piqillab kelgan Mahmudjonni bag‘riga bosib suydi.

Qo‘zichog‘im so‘zi qo‘zi so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qo‘zi so‘ziga –choq kichraytirish affiksi qo‘shilishi natijasida erkalash ma’nosi, -im egalik affiksi qo‘shilishi natijasida qarashlilik ma’nosi anglashilgan.

Otajaninim, otaxoninim. Ota so‘zi tarixan ham hozirgi tarzda uchragan.Ota termini hamma qabilalar uchun umumiy bo‘lib, ba’zi qabilalarda shu ma’no “oba” tariqasida qo‘llanilgan.

Ota so‘ziga “jon”, “xon” affikslari qo‘shilishi orqali o‘z otasiga va har qanday oqsoqol kishiga xushmuomalalik bilan bo‘ladigan murojaat, erkalash

ma'nolarini bildiradi. Masalan: Otaginam! Yig'lamang! Yig'lamanglar! (K. Yashin).

So'zlashuv nutqida qo'llanuvchi intim muomala bildiruvchi so'zlar o'zlarining gapda bajargan vazifalari va tutgan o'rinlariga qarab so'zlashuv nutqiga xoslangan barcha so'zlardan tubdan farq qiladi.

Erkaklarga hurmat yuzasidan murojaat qilinganda ularning nomi oldidan "bek", "boy", "toy", "jon" affikslari qo'shib ishlatilsa, xotin – qizlarga hurmat yuzasidan murojaat qilinganda ularning nomi oldidan erkalash, sevish, kichraytish ma'nolarini ifodalovchi "xon", "jon", "niso", "oy", "bibi", "bonu", "poshsha", "zor" kabi affikslar qo'shib ishlatiladi.

"Oy" affiksi ham xotin-qizlar nomiga qo'shib keladi va modallik, hurmat, erkalash-sevish, kichraytish ma'nolarini ifodalab keladi. Masalan: Sizni ko'rsam hamma tashvishlarimni esdan chiqaraman, Orziguloy ("Sharq yulduzi").

"Niso" affiksi ham xotin-qizlar nomiga qo'shib kelib erkalash, sevish, ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: -Sizdan bir o'tinchim bor, Shahriniso ("Jizzax haqiqati").

1.7. So'zlashuv nutqiga xoslangan tabu va evfemizmlar

Kishilarning o'zaro so'zlashuvda ayrim narsalarning nomini aytishdan, ayrim so'zlarni qo'llashdan va talaffuz qilishdan qochishi hodisasi uchraydi. Shuning uchun ham kishilar o'z nutqlarini madaniy, yoqimli qilishga, qo'pol, odobsiz, aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarni ishlatmaslikka harakat qiladi.

Evfemizm tildagi stilistik hodisa bo'lib, tilning tasviriy vositalaridan biridir²⁶.

Evfemizmlar so'zlashuv nutqi leksikasining boyishida, so'z ma'nolarini kengaytirishda, so'zlardan turli stilistik maqsadlarda foydalanishda muhim ahamiyatga ega²⁷.

²⁶ N. Ismatullayev O'zbek tilidagi evfemizmlar va ularning klassifikatsiyasiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1964.56-bet.

O'zbek tilshunosligida, shuningdek turkologiyada evfemizmlarni izohlashga bag'ishlangan bir qator maqolalar va dissertatsion ishlar mavjud.

Ushbu ishlarda tabu va evfemizmlarning paydo bo'lish sabablari, klassifikatsiyasi, ularning badiiy adabiyotda qo'llanish doirasi, evfemizmlarni o'rganilish tarixi haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi o'zbek tilida, so'zlashuv nutqida tabu va evfemizmlarning qo'llanishi, ularning ifodalanishi kabi masalalarni hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir. So'zlashuv nutqida so'zlar o'z ma'nolaida ham, ko'chma ma'nolarda ham qo'llaniladi. Shunga ko'ra ular turli ma'no ottenkalarini, turli xil stilistik priyomlarni ifoda etish xususiyatiga ham egadirlar.

So'zlashuv nutqidagi evfemizmlar qo'llanish doirasiga ko'ra bir nechta turlarga bolinadi:

- a) er-xotin nutqida qo'llanuvchi evfemizmlar ;
- b) oila qurish va homiladorlik bilan bog'liq evfemizmlar;
- c) o'lim bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlar;
- d) kishilarning jismoniy kamchiliklarini ifodalovchi evfemizmlar;
- e) shifokorlar tilida qo'llanuvchi evfemizmlar.

Qadimgi kelayotgan urf –odatga ko'ra oilada er va xotin bir- birlariga murojaat qilganlarida eri xotinini, xotini erini nomini tilga olmasligi kerak. Bu qoidani buzish hurmatsizlik sanaladi. Shuning uchun ular o'zaro murojaatda farzandlarining birontasini nomi bilan yoki boy, oqsaqol, ahay, hoy, onasi, otasi, dadasi, bolalarning onasi, yostiqdosh, umurdosh, jufti halol, javza to'ra, kuyov, yor, o'rtoq, turmush o'rtoq, rafiq, bek, zaifa, oila, zavja, qiz kabi evfemizmlardan foydalanadilar. Masalan, "Dadasi, qizingiz unaqangi chizgan chizig'ingizdan chiqadigan bola emas, sevib qo'shilganga nima yetsin, dadasi" (O.Yoqubov).- Onasi, xo onasi! Men Qumqishloqqa ketdim, havotir olmanglar. (H.G'ulom).

Keltirilgan misollardagi onasi, dadasi so'zlari so'zlashuv nutqiga xos forma

²⁷ B.O'rinboyev.So'zlashuv nutqi va evfemizmlar. "O'zbek tilshunosligining ayrim masalalari". T.,1979.3-bet.

bo'lib, uning adabiy formasi er va xotindir. Ushbu so'zlar Marhamatoy, Roziyaxon so'zlari o'rinda qo'llangandir.

Er va xotinlar farzandli bo'lganlaridan keyin ular o'zaro so'zlashuvlarida bir-birlarini farzandlari nomlari bilan ataydilar.

Masalan: Men senga aytib qo'yay, Kumush,- dedi turar ekan qutidor Oftoboyimga, - bu kunga bir mehmon aytgan edim. (A. Qodiriy)

- Asqarjon, cho't keltir! (H.H.Niyoziy).

Keltirilgan misollardagi Kumush, Oftoboyim o'rinda, Asqarjon Gulnora o'rinda ishlatilgandir.

Yoki: - Hoy, Ra'no,- dedi Mahdumga,- nonlarimizning suvi qochgan, xamir qilishga vaqt oz, bozordan issiq non oldirasizmi? (A.Qodiriy)

Yuqoridagilardan tashqari, er va xotinlar bir- birlarga murojaat qilganlarida "ahay", "hoy", "uy", "ayu", kabilardan ham foydalanadilar. Masalan:

Hoji. Hoy!

Xalcha. Ha, aka?

Hoji. Anovi qani?

Kimyo. (Chiqib). Mana men, nima deysiz otasi? (Yashil).

Bu misollarda Hoji o'z turmush o'rtog'ini uning nomini aytib chaqirmasdan "hoy", "anavi", "xotin" so'zlari bilan chaqirayapdi.

So'zlashuv nutqida oila qurish xotin-qizlarning homiladorlik holati bilan bog'liq bo'lgan bir qator (erga tegmoq, xotin olmoq, o'g'ilga xotin olib bermq, qizini erga bermq) tushunchalar mavjuddir. Ushbu tushunchalarni kishilar o'z nutqlarida qo'llashga o'ng'aysizlanadilar. Shuning uchun ular o'zaro so'zlashuv nutqida ushbu so'zlardan foydalanadilar: Uylanishimning uchinchi yili Saodat yukli bo'ldi (A.Qodiriy).

Keltirilgan misollardagi qutilib oling so'zi nutqiy odob nuqtai nazaridan nutqiy so'zlashuv nutqidagi tug'moq so'zi o'rinda qutilib olmoq, erga bermq o'miga egasiga topshirmoq so'zlari qo'llangandir. Bu evfemizmlar muayyan nutqiy vaziyat talabi bilan yaratilgandir. Ma'lum kontekstda evfemistik ma'no kasb etgan so'zlar kontekstdan tashqarida shu ma'noni ifodalamaydi.

Hali erga tegmagan hali xotin olmagan tushunchalarini ifodalash uchun boshi ochiq , bo'sh, uylanmagan, yigit, ko'zi ochilmagan kabi evfemizmlar ishlatiladi.

Tug'moq so'zi o'rinda so'zlashuv nutqida yengillashmoq, ko'zi yorimoq, farzandli bo'lmoq, tirmoq ko'rmoq kabi evfemistik so'zlar qo'llaniladi. Masalan: Asalning ko'zi yorigan kuni men Xitoydan qaytib kelgan edim (Ch.Aytmatov).

Xuddi shuningdek, kichik yoshlilar o'zidan kattalarning nomini aytmaydi, ular ismini aytib murojaat qilmaydi. Natijada tilda yaqinlik, qarindoshlik ifodalovchi bir qator evfemizmlar yaratilgan. Masalan: Komilov: Bundan chiqdiki, Dadavoy aka senga qaynota bo'lar ekanda? (Uyg'un. "Navbahor").

-Xolva muborak inim.

-To'y muborak, qayliq muborak kuyovto'ra!

So'zlashuv nutqida o'lim tushunchasi o'rinda shu so'zning ma'nosini ifodalovchi qazo qildi, halok bo'ldi, jon berdi, ravona bo'ldi, vafot etdi, ko'z yumdi, olamdan o'tdi, shahid ketdi, bandalikni bajo keltirdi, mangulik uyqusiga ketdi, marhum, yuragi urishdan to'xtadi, tinchidi, hayotdan ko'z yummoq kabi evfemistik so'zlar ishlatiladi.

Masalan: Ha, Xudoning hoxishi shu ekan. Otang olamdan o'tdi. U qizg'in jang borayotgan bir paytda halok bo'ldi.

So'zlashuv nutqida o'ldi so'zi o'rinda marhum, rahmatli kabi evfemizmlar ham ishlatiladi. Masalan: Xudo umrini bersin. Raxmatli otasining o'zi. Keltirilgan misollardagi olamdan o'tmoq, qazo qilmoq kabi evfemizmlar o'zlarining emotsional - ekspressiv va stilistik bo'yog'i jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Yuqoridagilardan tashqari shevalarda o'lim tushunchasini ifodalaydigan uchdi, nobud bo'ldi, hazon bo'ldi kabi evfemizmlar ham uchraydi.

Kishilarning salbiy tomonlarini, ularning jismonan kamchiliklarini ifodalash uchun so'zlashuv nutqida quyidagi evfemizmlar ishlatiladi: o'g'ri so'zi o'rinda qo'li egri, qari chol o'rinda mo'ysafid, cho'loq o'rinda mayib, majruh, kamroq, nogiron, notavon, muhtoj, qo'pol o'rinda dilozor, xunuk o'rinda pachaqa, firibgar, ayyor o'rinda g'alamis.

Soʻzlashuv nutqida qoʻllanuvchi bunday evfemizmlar maʼnosi qoʻpol boʻlgan soʻzlar oʻrnida ishlatilib, nutqni madaniy boʻlishi uchun xizmat qilgan va turli - tuman semantik-stilistik vazifalarni oʻtaydi. Masalan: Ravshan, Ha sen! Poʻksan...

Yuqoridagilardan tashqari soʻzlashuv nutqida stilistik mqsadda qoʻllanuvchi evfemizmlar, irim qilish bilan bogʻliq boʻlgan evfemizmlar ham mavjud.

Malumki, chorvachilik oʻzbeklarning qadimiy kasblaridan biridir. Irim qilish bilan bogʻliq boʻlgan evfemizmlarning bir turi chorvachilik bilan bogʻliq holda yuzaga kelgandir. Bu oʻrinda "ilon " va "boʻri" soʻzlarini koʻrsatish mumkin. Ilon va boʻri mollarga koʻproq ziyon yetkazadi. Shuning uchun chorvadorlar tilida ilon tabu boʻlib, ilon soʻzi oʻrnida "qayish", "argʻamchiq", boʻri soʻzi oʻrnida "oting oʻchgur", "koʻk yolli", "jondor" soʻzlari qoʻllaniladi.

Soʻzlarning evfemistik maʼnolari soʻzning asl, toʻgʻri maʼnolaridan farq qiladi va oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Evfemistik funksiya-bu soʻzning oʻziga xos, alohida funksiyasidir. Buni anglash uchun quyidagi sxemaga diqqat qilish mumkin.

Soʻz	Soʻzning toʻgʻri maʼnosi	Soʻzning evfemistik maʼnosi
Lozim	Modal soʻz	Kiyim
Eshak	Hayvon	Chiyon
Otasi	Padar	Eri,erim
Onasi	Volida	Xotin,xotinim

Kishi	Odam	Er,erim
Ko‘k yolli	Hayvon yolini rangi	Bo‘ri ma’nosida
Bir kam	Miqdor anglatadi	Jinni,telba
Qamish	Yovvoyi o‘simlikning bir turi	Ilon
Hoy,ahay	Undov so‘z	Er,xotin
O‘n olti	Miqdor anglatadi	Miltiq
Momo	Katta ona	Jin,ajina,arvoh
Don olishmoq	Jinsiy aloqa qilmoq	
Ravona bo‘lmoq	Yo‘l yurmoq	O‘lmoq

1.8. So‘zlashuv nutqiga xoslangan kinoya, piching so‘zlar

”Qochiriq so‘zlar g‘oyat murakkab hodisalarning mohiyatini yaxshi ifodalab beradi”²⁸, deyiladi nazariy adabiyotlarda.

So‘z bir predmet yoki voqelikning nomini atashdan tashqari g‘azab, nafrat, haqorat, mensimaslik, masxaralash, hazil-mutoyiba, kinoya, piching kabi emotsional-ekspressiv ma’no anglatish xususiyatiga ham egadir.

So‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi piching so‘zlar-salbiy baho ottenkasiga ega bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiradi.Bunday so‘zlarga quyidagilarni kiritish mumkin: oyimcha, oyimchaxon, bolaxur, soyaparvar, aylanay-xonim, aylanay, jonidan, o‘zlari, kechirgaylar, sodiqcha, oshpazcha va boshqalar.

So‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi so‘zlarda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan salbiy munosabati, ya’ni mensimaslik, masxaralash, jirkanish, past nazar bilan qarash holati o‘z ifodasini topadi.

So‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi piching so‘zlarni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

²⁸ Begmatov E., O‘rinboyev B. “Tabu va evfemizmlar” (to‘plam.”Filologik tadqiqotlar”). Toshkent. 1979. 5-bet

1.Xotin-qizlar nomiga –cha, -xon, -oyim, -oyim tilla, aylanay kabi elementlarni qo‘shish orqali hosil qilinuvchi piching so‘zlar.

2.So‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi ”tavba”, ”qulluq”, ”kechirgaylar”, ”gunohkormiz” kabi undov funksiyasida qo‘llanuvchi so‘zlar orqali hosil bo‘luvchi piching so‘zlar.

3.Frazeologik iboralardan hosil bo‘luvchi piching so‘zlar.

Kichraytish-erkalash ma’nolarini ifodalovchi – cha affiksi kishilar nomiga, ularning kasb-korini anglatuvchi so‘zlarga qo‘shilib kelib, ayrim hollarda kinoya, mensimaslik, masxaralash holatlarini ham ifodalab keladi.Masalan: Shunaqa, deng, shu gaplarni hammasi o‘zingiznikimi, oyimcha? (”Sharq yulduzi”).

O‘zaro so‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi bir qator undovlar ham o‘zidan oldingi yoki keyingi so‘zlarga qo‘shilib, piching, kamsitish kabi ma’nolarni ifodalab keladi.Masalan: -Iya, muborak bo‘lsin oyimposhsha.

Sevish-erkalash, hurmat qilish ma’nolarini ifodalovchi – xon affiksi ham xotin-qizlar nomiga qo‘shilib kelganda, ayrim hollarda kesatish, piching, mensimaslik ma’nolarini ifodalaydi. Bu holatni ko‘proq intonatsiya belgilaydi.Masalan:

O‘zaro so‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi bir qator undovlar ham o‘zidan oldingi yoki keyingi so‘zlarga qo‘shilib, piching, kesatish kabi ma’nolarni ifodalab keladi.Masalan: - Iya, muborak bo‘lsin, oyimposhsha.

E, didingga bali-e!

So‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi ”tavba”, ”qulluq”, ”kechirgaylar”, ”o‘zlarini”, ”e, o‘zlarimi”, ”raxmat” kabi undov funksiyasida qo‘llanuvchi so‘z va iboralar ham piching, kesatish ma’nolarini ifodalab keladiki, bunday holatda so‘zlochini intonatsiyasi, holati asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan: Qulluq, ming marta qulluq dedik-ki, akasi jonidan! (”Sharq yulduzi”).

II. BOB

SO'ZLASHUV NUTQIGA XOSLANGAN JARGO VA ARGOLAR

2.1. Jargo va argolarning o'rganilishi va tasniflanishi

So'zlashuv nutqi jonli, hayotiy va kundalik turmush nutqidir. So'zlashuv nutqida so'zlovchilarning psixik olami, holati, o'zaro munosabatlari, ijobiy, salbiy, intim munosabatlari o'z ifodasini topadi. Shu tufayli so'zlashuv nutqida shunday leksik guruhlardan bo'lgan jargon va argolar ham ishlatiladi.

So'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argo so'zlarning gapdagi vazifalari va ishlatilish xususiyatlariga ko'ra so'zlashuv nutqiga xoslangan boshqa so'zlardan farq qiladi. Bunday so'zlarda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan ichki yashirin munosabati namoyon bo'ladi. So'zlashuv nutqiga xoslangan jargonlar sinfiy ayrimliklarni ko'rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari va ayrim guruhdagi kishilar uchun tushunarli bo'lib, boshqalar uchun ma'lum ma'noda tushunarli bo'lmagan so'z va iboralaridir.

O'tmishda xalqni ekspluatatsiya qiluvchi sinf vakillari, saroy doirasiga mansub bo'lgan yuqori mansabdorlar, savdogarlar, din ahllari, qalandar va maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o'g'rilar va boshqa firibgarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish maqsadida o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar va iboralardan foydalanganlar. Bunday so'zlar ko'proq fors-tojik, arab tillariga (keyinchalik rus tilidsn ham olingan) old bo'lib, ular tovush tomonidan ham, ma'no tomonidan ham sun'iy ravishda o'zgartirilgandir.

Demak, "Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar jargolar"²⁹ deyiladi.

Jargo - fransuzcha "buzilgan til" ma'nosini anglatadi. Jargon va argolar asosan so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda, tarixiy asarlarda, feletonlarda voqelikni to'laroq aks ettirish uchun ishlatiladi.

²⁹ Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. "O'zbek tili" Toshkent. 1966 yil. 42-bet.

Til sinfiy xarakterga ega bo'lmagan ijtimoiy hodisadir. Feodalizm yoki kapitalizm davrlarida, jamiyatning antogonistik guruhlariga, sinflarga bo'linishiga qaramay, til birgina guruh yoki sinfnin ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmaydi, u jamiyat a'zolarining hammasiga bab-baravar xizmat qiladi. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixi jarayonida yolg'iz bir sinf tomonidan yaratilgan emas, balki butun jamiyat va jamiyatdagi barcha sinflar tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisadir.

Shu bilan birga, til bironta davrning, bironta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning mahsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsulidir.

Demak, faqat bir sinfga xizmat qiluvchi til bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun til sinfiy xarakterga ega emas. Lekin har bir hukmron sinf tilga farqsiz qaramaydi, balki tildan o'z manfaat yo'lida foydalanishga harakat qiladi. Chunonchi, burjuaziya sinfi mehnatkash xalq ommasini o'ziga itoat qildirish, o'zining ekspluatatorlik basharasini yashirish, kapitalizm tuzumini yoqlash, o'zining reaksiyon ideologiyasini mehnatkashlar ongiga singdirishga intiladi.

Shuning uchun ham burjuaziya sinfining namoyondalari o'z sinfining manfaatlarini ko'zda tutib, tilga o'zlarining ayrim so'zlari, terminlari va iboralarini kiritishga urinadi. Ular ana shunday yo'l bilan o'zlarini xalqdan yuqori turganliklarini ko'rsatishga ham harakat qiladi. Natijada har qaysi hukmron sinf (masalan, burjuaziya)ning o'ziga xos jargon va dialektlari yaratiladi. Har qaysi sinfnin ana shunday so'zlari, terminlari va iboralari ijtimoiy jargon yoki ijtimoiy dialekt deb ataladi. Lekin bunday ijtimoiy jargon yoki dialektlarni sinfiy til deb da'vo qilish tamomila noto'g'ridir, chunki bunday ijtimoiy jargon yoki dialektlarning alohida so'z boyligi va grammatik qurilishi bo'lmaydi. Ular umumxalq tilidan, uning so'z boyligidan va grammatik qurilishidan foydalanadilar. Shuningdek, bunday jargon va dialektlar faqat ma'lum bir tabaqadagi kishilargagina xos bo'lib, ularni keng xalq ommasi tushunmaydi.

Shunday qilib, til jamiyatga xizmat qiluvchi ijimoiy hodisadir. Jamiyat a'zolarining sinflar, tabaqalar va guruhlariga bo'linishidan qat'iy nazar, til hammaga bab-baravar xizmat qiluvchi aloqa vositasi bo'lib qoladi.

So'zlashuv nutqi turli kasbkor muayyan sinf vakillari tabaqalariga mansub shaxslar nutqida yuz beruvchi jarayondir.

Shu tufayli bu nutq tilida jargolardan foydalanish hollari ko'p uchraydi.

So'zlashuv nutqida qo'llanish doirasiga ko'ra jargonlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Saroy amaldorlari nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
2. Din peshvolari nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
3. Savdogarlar nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
4. O'g'rilar va bezorilar nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
5. Otarchilar (sozandalar) nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
6. Xotin-qizlar nutqida qo'llanuvchi jargonlar.
7. Talabalar va o'quvchilar nutqida qo'llanuvchi jargonlar jargon va argolar.
8. Umum omma tomonidan qo'llanuvchi jargon va argolar.

Bu turdagi jargonlarga o'tmishda saroy doirasiga mansub bo'lgan shaxslarning hamda din ahllirining dabdabali balandparvoz so'zlari, ya'ni "kiborlar tili" kiradi. Ular o'zlarini mehnatkash xalqdan yuqori tutish va o'z maqsadlarini mehnatkash ommadan yashirish niyatida ana shunday so'zlardan foydalanganlar.

Manbalarda bu borada quyidagilar bayon etiladi: "Таким образом, отдельные общественные группы создали отличающийся от общенародного языка... тайный «диалект», который называется «жаргоном»."³⁰

Yozuvchilar, so'z san'atkorlari o'sha davrga murojaat qilganlarida, ularning tilidan voqea-hodisalarni bayon etganlari, ularning holatlarini ochib berish jarayonida bunday so'zlarga murojaat qilishlari tabiiydir. Aslida jargon va argolar adabiy til normasiga halal beruvchi elementlar sanaladi.

³⁰ Pinxasov Y. "Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi" T.1966, Shomaqsudov A. "O'zbek tili stilistikasi haqida" T.1974. Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". T.1980.

Hozirgi tilimizda ham ayrim o'sha davr qoldiqlaridan qutila olmagan kishilarning nutqlarida bunday jargonlar uchrab turadi. So'zlashuv nutqida qo'llanuvchi bunday jargolar o'zlarining qo'llanilishiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Ular saroy aristokratiyasi, ruhoniylar, savdogarlar, individual shaxslar tomonidan ham yaratilgan bo'lishi mumkin. Ularning o'zaro so'zlashuv nutqida qo'llanuvchi jargonlar umumxalq uchun tushunarli bo'lmay, forsha va arabcha, internatsional so'zlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Masalan: Pirim shu yerda manzulu murodlarini topib, ilohiyatning dargohiga matqul etildilar. (A. Muxtor).

Mulladust (o'zini ko'rsatib): Tangang yo'q, uylanishga bir chaqang, turma jahonni tor qilib, bo'l oxirot sari dakang. (H.H. Niyoziy).

-...Xudo nasib etsa yaqin kunlarda yangi rutbai oliy bilan janoblarini tabrik qilurmiz. (Oybek).

Boymat bir nayrang ishlatmasak ishlar kishtimotga yetib, oyog'imiz osmondan keladi. ("Mushtum").

-Bizga ziyofat malhuz emas, ne'mati jannatni keltur. (H.H. Niyoziy).

Aloviddin: Assalomu alaykum, yaxshilar! Uzr, picha hayollab qoldim. Huzuri muborakka kirib chiqdim. (S. Tursun).

Keltirilgan misollardagi "matqul etildilar" birikmasi "o'ldi" ma'nosida, "oxirat sari dakang" birikmasi "o'lganing yaxshi", "narigi dunyoga ravona bo'ldi", "bandasini bajo keltirdi" ma'nosida, "rutbai oliy" so'zi "yangi farmon", "yangi mansab" ma'nosida, "kishtimotga yetib" so'zi "sir ochilmoq", "sirdan boshqalar voqif, xabardor bo'lmoq" ma'nosida, "malhuz emas" so'zi "mulohaza qilinadigan emas", "tatimaydi", "kerak emas", "ne'mati jannat" - "yor, mahbuba, qiz" ma'nosida, "huzuri muborak" birikmasi "amir, podshoh, hokim" qabuli kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

Ayrim hollarda oddiy muomalada qo'llaniluvchi so'zlar ham individual shaxslar nutqida jargon ma'nosini kasb etadi. Masalan: Ahmadponsod. O'ho'. Momoqaymog'i to'rga tushibdiku! (K. Yashin).

-Yangi mehmon bilan uch-to'rt kun ayag'lashaylik. (H.H. Niyoziy).

-Cho‘loq! Doridan keltir.(Oybek).

-Bo‘lmasa charlarni kutmaginda, yugura qol, - dedi o‘zbek oyim, - marg’ilonlikning o‘kchangingdan urganligi aniq ekan. Kumush juda ham to‘nini teskari kiydi va yuzini chetga burdi:

-Yalhaqlikni qo‘ying.(A.Qodiriy).

Keltirilgan misollardagi “momoqaymog’i” so‘zi chiroyli, go‘zal, suluv, yosh qiz ma’nosida, ”ayag’lashmoq” so‘zi maishat qilmoq, jinsiy aloqaga bormoq, ”dori” so‘zi musallas, aroq ma’nosida, ”o‘kcha” so‘zi “xayolini, o‘y-fikrini o‘g’irlamoq, yuragidan urmoq” ma’nosida, ”yalhaqlik” so‘zi esa “ikkiyuzlamalik” kabi ma’nolarda qo‘llanilgandir.

Bu turdagi jargonlarga o‘tmishda saroy doirasiga kiruvchi din peshvolari toifasiga mansub bo‘lgan mansabdor va ularning vakillarining dabdabali, balandparvoz so‘zlari, ya’ni “kiborlar tili” kirgan.

2.2. Saroy amaldorlari nutqiga xos jargo va argolar

Saroy amaldorlari o‘z niyatlarini boshqalardan yashirish va o‘zlarini boshqalardan ustun ko‘rsatish uchun arabiy, forsiy so‘zlardan, ya’ni balandparvoz nutqdan foydalanganlar.

Manbalarda bu borada quyidagilar bayon etiladi: ”Ba’zi kishilar o‘z sirlarini boshqalardan yashirish, o‘zlarini madaniyatli qilib ko‘rsatish uchun umumnutq qatlamida mavjud bo‘lgan so‘zlashuv dialektlaridan “yashirin”, “sirli” ravishda foydalanganlar.

Hozirgi tilimizda ham o‘tmish qoldiqlaridan qutilolmagan kishilar nutqida bu narsa uchrab turadi. So‘zlashuv nutqiga xoslangan bunday so‘zlar boshqa so‘zlardan ajralib turadi. Masalan:

-Mullado‘st (o‘zini ko‘rsatib). Tenging yo‘q, uylanishga bir chaqang, turma jahonni tor qilib, bo‘l oxirat sari dakang (H.H.Niyoziy).

-...Xudo xoxlasa yaqin kunlarda yangi rutbayi oliy bilan janoblarini tabrik qilurmiz (Oybek).

Boymat.Bir nayrang ishlatmasak ishlar kishtimotga yetib, oyog'imiz osmondan keladi (H.H.Niyoziy).

Ushbu misollardagi “Oxirat sari dakang” birikmasi, “O‘lganing yaxshi”, “rutbai oliy” so‘zi “Yangi farmon ma’nosida”, “kishtimotga yetib” so‘zi “sir ochilmoq” ma’nosida qo‘llanilgan.

Ayrim hollarda so‘zlashuv nutqida qo‘llaniluvchi oddiy muomalaga oid so‘zlar yakka shaxs nutqida jargon ma’nosini kasb etishi mumkin. Masalan: Ahmadponsod. O‘ho‘! Momoqaymog‘i to‘rga tushibdiku!

2.3. Din peshvolari nutqida qo‘llanuvchi jargonlar

Din peshvolari ham saroy amaldorlari singari o‘z niyat va maqsadlarini oddiy xalqdan yashirish, o‘zlarini madaniyatli, savodli qilib ko‘rsatish uchun turli xil jargonlardan foydalanganlar.Masalan:

- 1.Oqibat, ikki dunyosi makhur bo‘ldi...Ha, bolam, vallohu olam hech bir bandasining gunohini kechmaydur.
- 2.Ul shahnatun najaf daxriy shox ila yuzlamoqni gunohi azim deb biladur! (O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinası”).
- 3.Shahdi aysh azmida fuqaroni rindlikka o‘rgatding.
- 4.Zerokim, o‘g‘il bilan ota o‘rtasiga nifoq solib, farzandni o‘z padariga qayrash...gunohi kabir emasmu, hazratim?
- 5.Yasovul qilib olsang, qobili bedod quling bo‘lur.
- 6.Agarchi shayton vasvas qilsa, layli-u nahor olloga hamdu sano o‘qib,arzu ixlosni ado qilib barcha anduhni ko‘nglingdan haydagaysen, shahzodam.

Keltirilgan misollardagi “makhur” so‘zi “olloning g‘azabiga duchor bo‘ldi” ma’nosida, ”vallahu olam” so‘zi “Xudo”, “Olloh” ma’nosida, “shahnatun najaf” so‘zi “davlat posboni” ma’nosida, “shahdi aysh” birikmasi “zo‘r gunoh” ma’nosida, ”qobili bedod” birikmasi “jafolarga ko‘nuvchi”, “mute” ma’nosida, ”laylu nahor” so‘zi “kecha-yu kunduz” ma’nolarida qo‘llanilgan.

2.4. Savdogarlar nutqida qo'llanuvchi jargolar

Ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashmay, tekin pul topishga o'rganib olgan savdogarlar ham o'zaro so'zlashuvlarida turli jargonlardan foydalanadilar. Bunday jargonlarning aksariyat qismi hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at fondida mavjud bo'lgan so'zlardan hosil bo'ladi. M.Tursunpo'latov bu borada quyidagilarni bayon etadi: "В речи перекупов и спекулянтов также встречаются жаргонизмы понятие только для них самих"³¹.

Savdogarlar nutqida qo'llanuvchi jargonlarga sar yoki sarpiyoz (ming so'm), saru nimsar (bir ming besh yuz so'm), shapkasi (ustama pul, ortiqcha narx), ellik olti (ipak), tish (guruch), qiyqim (material), qaychi (tekshiruvchi), sochini olmoq (arzon narxda olmoq), inxay (choy), kapari (olti ming so'm), mo'ysafid (stolichniy aroq) va boshqalarni kiritish mumkin.

Masalan:

- Ustida ozroqqina shapkasi bor.
- Shapkasi nimasi? ("Sharq yulduzi")
- Ellik oltidan qancha bo'lsa ketadi. ("Mushtum").
- Menga saru nimsarlik qiyqim tashlab ketdi. (S.Tursun).
- Ikki qishloqini yaxshilab sochini oldim. (Oddiy so'zlashuvdan).

Qorovul: - Mo'ysafiddan kechga to'rt o'rov qoldiring.

Sotuvchi: - Qaychiga ehtiyot bo'lasizda! ("Mushtum").

- Bizga inxay kerak edi, topib bersangiz, birodar.
- Ustida shapkasi bilan bor, olasizmi?
- Sarpiyoz yetadimi, axir? ("Mushtum").
- Bir qop tishni xamirdan qil sug'urgandek tez muxayyo qilamiz.

(Jonli nutqdan).

³¹ Tursunpo'latov M. "Лексика узбекской разговорной речи" Т."Fan" 1986

2.5. O‘g‘rilar va bezorilar nutqida qo‘llanuvchi jargolar

O‘g‘rilar va bezorilar ham o‘zlarining sirlarini o‘zgalardan yashirish maqsadida turli jargonlardan foydalanadilar. Bular argolar ham deb yuritiladi. Argolar ham jargonlar singari umumxalq tilidan olingan bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlardir. O‘g‘rilar va bezorilar nutqida qo‘llanuvchi jargonlarga: ”Arra qilmpq” (o‘g‘irlangan narsani bo‘lib olmoq), ”Nota topshirmoq” (kelishib olmoq, o‘g‘irlanish lozim bo‘lgan joyning rejasini topshirmoq), ”ayiq” (shayka boshlig‘i), ”tulki” (qo‘lga tushmas o‘g‘ri), ”zamri” (jim tur, to‘xtab tur), ”atamri” (gapir, ishingni davom ettir), ”atanda” yoki ”xit” (qoch), ”hamka” (non), ”bedana” (to‘pponcha), ”bedanani donlatmoq” (to‘pponchani o‘qlamoq), ”bedanani sayratmoq” (otib tashlamoq), ”mehmonga kuzatmoq” (o‘ldirmoq), ”yelkasini silamoq” (kaltaklamoq) va boshqalar.

Masalan: -...Arraga kelyaptimi yoki ”elchilar” nota topshiradimikan?

Arraga bu paytda kelmasdi. (M.Salom).

-Nechuk? Darvoqe, tulki qani? (M.Salom).

-Ayiqli bo‘lmaganda tulkining ahvoli voy edi. (M.Salom).

-Yaxshi yigit ekan, yelkasini silab qo‘ysalaring bo‘lgani. (”Sharq yulduzi”).

-Shahzodam, hozir sizni yaxshilab narigi mahallaga kuzatamiz. (M.Salom).

-Tulki, iloji bo‘lsa bedanani donlatib kelsang. (M.Salom).

Ortiqcha... sutdan kelgan daromad jinoyatchilar o‘rtasida arra qilib kelingan.

Xaqiqatda esa, bu tulkilar uni laqillatadilar. (A.Qahhor).

2.6. Otarchilar, sozandalar nutqida qo‘llanuvchi jargolar

Otarchilar, sozandalarning ham o‘zaro so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan jargonlari mavjuddir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ularning maqsad va vazifalarini

o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir guruhning nutqida o‘ziga xos ma’no anglatuvchi jargonlari bo‘lganidek, san’atkorlarning bir guruhini tashkil etuvchi, ya’ni o‘z san’atlarini pulga sotuvchi, o‘z so‘zlari bilan aytganda otarchilar nutqida qo‘llanuvchi alohida jargonlar ham mavjuddir.

Masalan: -Yakandan gapir, yakandan, yakani mo‘lmi? (“Sharq yulduzi”)

-Loyi cho‘t bermadi. (“Sharq yulduzi”).

Imomxon. Bizga loyi cho‘t bermadi. (Uyg’un).

Savdogarlar o‘z mollarini pullashda kishilar bilan o‘zaro savdolanishganlari kabi otarchilar ham o‘z mijozlari bilan o‘zaro kelishadilar. Bunday holatda ular o‘z maqsadlarini ochiq bayon etmay, yashirin tilda o‘zaro so‘zlashadilar. Masalan:

-Anvarjon! Loyi to‘rt paxsadan kam bo‘lmasin.

-Bu tomonni menga qo‘yib bering, loyini yaxshilab pishitganman, poydevori mustahkam, to‘rt-besh paxsani ham ko‘taradi. (Jonli nutqdan).

Dugonajon, kechagi sayohatda bo‘ynim marjon (pul) ko‘rganday bo‘ldi, belimning chandiqlari ham bitganday. (“Mushtum”).

-Sayohating qalay bo‘ldi?

-Otangga rahmat, dah. (S.Tursun).

Otarchilar to‘yu marakalarda odamlar o‘yinchiga kamroq pul qistirilar o‘yinchining odamlardan pul undirish yo‘liga o‘tishi uchun unga ishora qiluvchi qator jargonlar ham mavjuddir. Masalan:

G’amza bilan jonin oling, katmonda darmon qolmadi. (“Mushtum”).

...G’amzaxon: - Boshladik... Yakanni paxsa qiladiganidan.

-Bugun sayohatimiz bo‘lmadi, quruqlarga kunimiz qoldi.

-Jonon ishga kirish belda darmon qolmadi.

-Qizilidan kam bo‘ldi-ku. (“Mushtum”).

-Pichoqqa ilinadiganidan davrada bormi? (Jonli nutqdan).

Yuqorida keltirilgan misollardagi “yakan” so‘zi pul ma’nosida, “Loyi cho‘t bermadi” so‘z birikmasi daromadning mazasi bo‘lmadi ma’nosida, “To‘rt paxsa” so‘z birikmasi pulning pachkasi ma’nosida, “Loyni pishitmoq” ishni pishitib

qo‘ymoq ma’nosida, ”belning chandig’i” - ko‘ngli to‘lmoq ma’nosida, ”dah” - yaxshi, durust, ”katmonda darmon qolmadi” - belda darmon qolmadi, kistada pul qolmadi ma’nolarida, “quruq” - puli yo‘q ma’nosida, ”qizili” - o‘n so‘mlik, ”pichoqqa ilinadigani” - puli ko‘p ma’nosida qo‘llanilgan.

Bunday jargonlar hozirgi kunda ham to‘yma-to‘y yuruvchi otarchilar nutqida ham tez-tez uchrab turadi. So‘zlashuv nutqiga xoslangan bunday so‘zlarni alohida-alohida o‘rganmoq maqsadga muvofiqdir.

2.7. Xotin-qizlar nutqida qo‘llanuvchi jargolar

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmayotgan har bir guruh kishilarining o‘zaro so‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi jargonlari bo‘lganidek, xotin-qizlarning nutqida ham faqatgina ularning o‘zlarigagina tushunarli bo‘lib, boshqa kishilar uchun tamomila tushunarsiz bo‘lgan jargonlar ham mavjuddir. Xotin-qizlar nutqida qo‘llanuvchi jargonlarni ularning o‘zaro so‘zlashuv nutqlarida qo‘llanilishi va anglatgan ma’nolariga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1.Xotin-qizlarning homiladorlik xolatini ifodalovchi jargonlar.

Masalan:

-O‘zim bilmayman, qachon o‘tlab qo‘yganimni.Yuzidagi dog’larga qaraganda zambur chaqqaniga ancha bo‘lgan. (“Sharq yulduzi”).

2.Yomon yo‘lga yuruvchi xotin-qizlarning nutqida qo‘llanuvchi jargonlar.

Masalan: - Nima ham qilar edim, shundan keyin sayohatchi ayollarga qo‘shildim.(“Sharq yulduzi”).

-Asta-asta mahalla-ko‘y har kuni yangi kino qo‘yishimni seza boshladi.Ular meni ko‘rganlarida jirkanganday aftlarini burishtirar edilar. (E.Rayim).

-Qumrini har kuni raisning bog’ida sayrashini bilaman. (N.Qobul).

Ha, shunay bo‘ldi.Ota-onasining gapiga ko‘nmadi, bir olqindini topib ketdi.Ota-onadan, og’a-inidan mahrum bo‘ldi. (N.Qobul).

3.Qo‘li egri, g‘iybatchi xotin-qizlar nutqida qo‘llanuvchi jargonlar.

Masalan: - Nima haqida soʻzlashayapsizlar, ovsinlar?

-Nima haqida boʻlar edi, shpionlar haqida.(S.Ahmad).

-Ovsinimning xolis xizmatkorligini hamma bilardiyu, lekin betiga aytishga iymonar edilar.

Uning musichaday “beozor” ligi koʻplarni qon qaqshatgan edi.

Keitirilgan misollardagi “oʻtlab qoʻymoq” birikmasi homilador boʻlib qolmoq maʼnosida,”zamburga chaqtirmoq” esa jinsiy aloqada boʻlmoq maʼnosida, ”sayohatchi” soʻzi yomon yoʻlga yuruvchi maʼnosida, ”qora yuzli” fohisha maʼnosida, ”bogʻida sayramoq” soʻz birikmasi ham yomon yoʻlga yuruvchi maʼnosida, ”olqindi” soʻzi (aslida boʻlak, sovunning qoldigʻi) bu oʻrinda yomon yoʻlga yuruvchi ayol maʼnosida, ”shpion” chaqimchi, aygʻoqchi maʼnosida, ”xolis xizmatkor” esa qoʻshmach, ”musichaday beozor” birikmasi pismaning indamas, gʻalamis maʼnolarida qoʻllanilgan.

2.8. Talabalar va oʻquvchilarning tilida qoʻllanuvchi jargolar

Maʼlumki, til tarixi xalq tarixi bilan bogʻliq hodisa. Agarkim, xalq tarixida maʼlum oʻzgarish yuz bersa, bu hol tilda ham oʻz aksini topmay qolmaydi. Shuning uchun turli davrlarda turli soʻzlar paydo boʻladi, ayrimlari zamon talabi bilan isteʼmol doirasidan chiqib ketadi, ayrim soʻzlar yangi maʼno kasb etadi. Aslida jargonlar ham oʻzbek tilining lugʻat fondida mavjud boʻlgan soʻzlar guruhini tashkil etadi. Bunday guruhdagi soʻzlar ichida turli soʻzlarni uchratish mumkin. Tildagi bunday soʻzlardan turli kishilar turli maqsadda foydalanadilar. Demishki, maʼlum guruhlar ana shu mavjud soʻzlardan boshqa maʼnoda, yaʼni oʻz maqsadlari yoʻlida foydalanadilar. Keyingi paytlarda ijtimoiy sharoit taqozosi bilan boshqa kishilar nutqida boʻlgani kabi talabalar nutqida ham qator jargonlar paydo boʻldi. Talabalarning soʻzlashuv nutqida qoʻllanuvchi jargonlarni ham faqat oʻzlarigina emas, boshqalar ham tushunadilar. Talabalar nutqida qoʻllanuvchi jargonlarni ham quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Talabalar nutqida sinov va imtihonlar bilan bogʻliq boʻlgan jargonlar.

Masalan: "pili surot", "yigitning bahosi", "dumdil baho", "po'stagi qoqilmoq".

2. Talabalar nutqida ularni himoya qiluvchi shaxslar uchun qo'llanadigan jargonlar: tanka, jigar, hamtovoq, buldozer, qanot, tog'a.

3. Ular o'rtasidagi ayrimliklarni ko'rsatuvchi jargonlar: sardor, aloqachi, chegirtka, muz yorar, ho'l, quruq, aloqachi.

Masalan:

-Pili surotidan o'tdingmi yoki kalla tashladingmi?

-E, so'rasang do'stim, yigitning bahosi.

-Beshni dumbulini kissaga yaxshilab joylab chiqdik.

-Rosa po'stagingni qoqishibdi-ku.

-Solijonning tankasi kuchlida, unga teng keladigani yo'q.

-Jigar qanday, jigar zo'rmi?

-Hamtovog'ing senga salom aytdi.

-O', bizni bilasanmi, charchatib tashlaymiz.

-Kapsanchi keldimi yoki boshi og'rib qoldimi?

-Sardor omon bo'lsa, changalda sho'rva, birodar.

Keltirilgan misollardagi "pili surot" (imtihon), "kalla tashlamoq" (yiqilmoq), "yigitning bahosi" (uch baho), "dumbil besh" (ikki), "po'stagini qoqmoq" (yiqitmoq), "tanka" (sinov imtihonlariga yordam beruvchi shaxs), "jigar" (homiy, yordam beruvchi kishi), "hamtovoq" (talabalar bilan hamkor bo'lgan kishi), "charchatmoq" (o'z yo'liga solib olmoq), "kapsanchi" (talabalar stipendiya olganda har biridan ulush olib turuvchi), "sardor" (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxs) ma'nolarida qo'llanilgan.

2.9. So'zlashuv nutqiga xoslangan argolar

So'zlashuv nutqining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, bu nutqda jargonlardan tashqari argolar ham ishlatiladi. Argolar dastlab (o'g'rilar jargoni

sifatida) XIX-asrdan boshlab, professional jargon sifatida qoʻllanila boshlagan.³² Argotizmlar oʻzaro soʻzlashuvda biror uslubiy maqsad yoʻlida ishlatilishi mumkin. Ayrim guruhlar (bu hol koʻproq yoshlar nutqiga tegishli ekanligini qayd etish kerak) oʻzlarini yuqori tutish va oʻz maqsadlarini boshqalardan sir tutish niyatida argolardan ham foydalanganlar va foydalanmoqdalar.

Ilmiy grammatikalarda jargonlarga “buzilgan til” deb taʼrif berilgan, lekin argolarga taʼrif berishda oʻgʻrilar nutqida uchraydigan baʼzi soʻzlarni, yaʼni jargonlarga argolar qoʻshib yuborilgan. Argolar ham fransuzcha “buzilgan til boʻlib, ular ham ayrim ijtimoiy guruhlar tilida mavjud soʻzlarning uchrashi bilan xarakterlanadi. Argotizmlar asosan oʻzbek tilida mavjud soʻzlarning boshiga, oʻrtasiga, oxiriga turli qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilinadi. Soʻzlashuv nutqida qoʻllanuvchi argotik qoʻshimchalarga quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. -za, -zo, ze, -zi, -zor, -zir, -zoʻ, -zu, -oz;
2. -fa, -fash, -fi, -bi, -di;
3. -ra, -ru, -ur, -ro, -re va boshqalar.

Masalan:

1. Sa-fan-ga-fa bi-fir ga-fap afay-ta-fa-ma-fan.
(Men senga bir maxfiy gap aytaman) (Jonli nutqdan).

Ushbu gapda -fa, -fi, -fan qoʻshimchalari soʻz oʻrtasi va oxirida ishlatilgan.

2. Ma-ran-ga-ra bi-zir ki-fi-shi-fi-da-fan xa-fat ke-fel-di-fi.
(Menga bir kishidan xat keldi).

-ra, -zi, -fi, -fe, -fa qoʻshimchalari soʻz oʻrtasida, oxirida qoʻllanilgan.

3. A-zay-ti-zib qoʻ-zuy, ma-zan-ga-fa ke-ze-re-zak e-ze-re-maz.
(Aytib qoʻy menga kerak emas).
4. Yo-zoq bo-zor-ma-zay-ma-zan.
(Yoʻq bormayman) . (Jonli nutqdan).

³² Moren M.K. Peterevnikova N.N. “Стилистика современного французского языка” Moskva.1960.

5. Ma-ron sa-ra-ni-ri ya-rax-shi-ri ko‘-zo‘-ra-za-ma-dan.

(Men seni yaxshi ko‘raman).(Jonli nutqdan).

-ro,-ra,-ri,-zu kabi qo‘shimchalar so‘zning o‘rtasida, oxirida kelgan.Misollardan ko‘rinib turibdiki, argolar ham jargonlar kabi nutqning o‘ta g‘aliz ko‘rinishi bo‘lib, salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

2.10. Jargon va argolar adabiy nutqning sofliğiga putur yetkazuvchi belgilar ekanligi

Adabiy nutqning sofliğiga putur yetkazuvchi belgilarga dialektal so‘zlar, jargon va argolar, piching, haqorat so‘zlar, o‘rinsiz ishlatilgan turli takrorlarni, noo‘rin ishlatilgan chet so‘zlarni kiritish mumkin.”Adabiy til o‘zining yozuviga asoslanishi va millat uchun umumiyliği hamda normativliği bilan jonli so‘zlashuv tilidan, sheva va dialektlardan farq qiladi”³³.

Sheva unsurlari umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko‘rinishlariga xos bo‘lgan hodisa sanaladi.Masalan: ota (dada), achchi (achchiq), bag‘onagi (boyagi), shoti (narvon), kallapo‘sh (qalpoq), isliqi (ko‘hna), hemiri (bir chaqa) va boshqalar.

Dialektal so‘zlar umumtil lug‘at boyliğining bir qismini tashkil qiladi.Dialektizmlarning badiiy asar tilida so‘zlashuv nutqida qo‘llanishi haqida aytilgan mulohazalar ko‘p.

Demak badiiy asarlarda shevalarning o‘rinli qo‘llanilishi asar tilini, uning sinonimik qatorini, obrazlılığını , tasviriyliğini oshirish mumkin.

Masalan:

-Neg‘lay dedi-hujrasida kitob o‘qiyotganmikan, deb kirsam u yerda ham yo‘q.

-Otlarga beda solgani chiqqandir-da bo‘lmasa?

-Neg‘lay.(M.Ismoilıy).

³³ Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 1982.

Qishloq maktablarida namunali nutq egalari bo'lmish yozuvchilar, shoirlar, jamiyatning boshqa ilg'or kishilari, fan arboblari bilan uchrashuvlar kam bo'ladi. Bunday hol aholining ko'pchiligi nutqida ham, maktab o'quvchilari nutqida ham sheva unsurlarining ko'proq saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Nutqiy jargonlar sinfiy farqlar bo'rtib ayrim tabaqa vakillari yoki ayrim kishilar uchun xos bo'lib, boshqalar uchun esa tushunarsiz so'z va iboralardir.

O'tmishda savodsiz bo'lgan ommani ezuvchi sinf vakillari, saroy ahli, mansabdor shaxslar, qalandarlar va savdogarlar nutqida jargonlar ko'plab qo'llangan. Jargonlar adabiy normani buzadi va nutq madaniyatiga putur yetkazadi. Nutq turli kasb-kor, muayyan ijtimoiy sinf vakillari, mansabdor shaxslar, oddiy shaxslar o'rtasida yuz beruvchi jarayondir. Shu sababli nutqda jargonlardan foydalanish hollari uchraydi. Jargonlarning nutqda qo'llanishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Inqilobga qadar mahalliy saroy vakillari, oq suyaklar va din peshvolarining (qalandarlar, maddohlarning) o'zaro so'zlashuv nutqida ishlatilgan jargonlar.

2. Inqilobdan keyin, ya'ni savdogarlar, o'g'rilar, otarchilar va boshqalar nutqida qo'llangan va qo'llanib kelinayotgan jargonlar.

Kundalik nutqda ishlatiluvchi bunday jargonlar o'zlarining vazifalariga ko'ra bir nech guruhga bo'linadi. Ular saroy, oq suyaklar, ruhoniylar, savdogarlar, boylar, shuningdek, boshqa yakka shaxslar tomonidan ham yaratilgan bo'lishi mumkin. Nutqdagi bunday jargonlar umumxalq uchun tushunarli bo'lmagan forscha, arabcha so'zlardan hosil qilinadi. Masalan: Boymat. Bir nayrang ishlatmasak ishlar kishtimotga yetib oyog'imiz osmondan keladi. (K. Yashin).

Kishtimotga yetib so'z birikmasi "sir ochilmoq", "barbod bo'lmoq" ma'nosidadir. Ko'p hollarda oddiy muomalaga oid so'zlar ham yakka shaxslar nutqida jargon ma'nosiga ega bo'lishi mumkin. Masalan: Ahmadponsot. O'ho', momoqaymog'i to'rga tushibdiku. (K. Yashin). (go'zal, sulsv ma'nosida).

Jargonlarning ikkinchi turi chayqovchilar, otarchilar nutqida uchraydi. Ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashmay, maishiy buzuqlikka o'tib olgan ba'zi savdogarlar nutqidagi jargonlardir. Bunday jargonlarning aksariyat qismi hozirgi adabiy tilning lug'at fondida mavjud bo'lgan so'zlardan foydalanadi. Masalan: Yakandan gapir, yakandan, yakani mo'lmi? ("Sharq yulduzi").

"Yakan" so'zi pul ma'nosida qo'llangan.

Jargonlarning uchinchi turi o'g'rilar, bezorilar nutqiga tegishlidir. Ular ham o'z qilmishlarini, kirdikorlarini boshqalardan yashirish uchun turli jargonlardan foydalanadilar: arra qilmoq, nota topshirmoq, ayiq, tulki, zamri, bedana va boshqalar.

Hozirgi kunda talabalar nutqida ham turli xil jargonlar paydo bo'lmoqda. Masalan: jiyan, jigar, tanka, yigitning bahosi, bel, homit, egov va boshqalar.

Hozirgi kunda maktab o'quvchilari, talabalar nutqida keng tarqalgan jargon shakllaridan biri argolardir. Argolar ham adabiy til normalariga halal beruvchi holatlardan biridir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan so'zlar tarkibiga – zor, -zir, -an, -fan, -ke, -sifon va boshqa xil qo'shimchalarni so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida qo'shib ishlatish orqali hosil qilinib nutqning o'ta qo'pol, buzuq, g'aliz ko'rinishi hosil qilinadi. Masalan: marangara bizir kifishifix xafat kefeldifi. (Menga bir kishidan xat keldi).

Jargon va uning belgilari muayyan ijtimoiy muhitning niyatlarini shaxsiy manfaatlarini yashirish tufayli yuzaga kelgan bo'lib, u ommaviy, umumxalq tili va adabiy til normalariga qarama-qarshi turadi. Shu tufayli jargon ko'pchilik kishilar uchun tushunarsiz sanaladi. Bunday nutq ataylab tuzilgan yoki o'ylab topilgan g'aliz, qo'pol va sun'iy tildir. Bunday nutqda so'zlovchi kishilar o'zlarini madaniyatli, savodxon kishilar sifatida boshqa kishilardan ustun qo'yadi, o'z niyatlarini sir tutishga harakat qiladilar. Aslida madaniyatsiz, o'z ona tilisiga nisbatan befarq, e'tiborsiz, madaniyatdan orqada qolgan odamlardir. Badiiy asarlarda yozuvchilar jargonlardan foydalanadilar. Buning o'ziga xos sabab va asoslari bor, albatta. Chunki yozuvchi o'z asarida o'zi tasvirlayotgan davr ruhini,

qahramon tilini, ruhiyatining o'ziga xosligini yitqazib berishda bunday so'zlarga murojaat qiladi, bu tabbiy holdir.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya samaradorligining oshishi, madaniyatning kunda-kun o'sib borishi natijasida jargonlar, argolar asta-sekin iste'moldan chiqadi va barham topadi.

III. Bob

Badiiy asarlarni o‘tish jarayonida uslublar haqida ma’lumot berish

Ma’lumki, badiiy adabiyot tili ham kommunikativ, ham estetik funksiyani bajaradi. Badiiy nutqning estetik funksiyani bajarishini shu nutqning o‘ziga xos muhim belgisi deb hisoblash mumkin. Publitsistik uslub ham estetik funksiyani bajarishi tabiiy, lekin ikkalasidagi estetik ta’sir kuchini bir narsa deb bo‘lmaydi. Badiiy nutqdagi ta’sirchanlik yuqori darajada qo‘llanish ko‘lamlari ham keng.

Badiiy uslub adabiy tilning shakllanishi uchun muhim rol o‘ynadi. U adabiy tilning asosini tashkil qiladi. Badiiy uslub boshqa uslub turlaridan keng qamrovliligi, turli ifoda vositalariga boyligi bilan farqlanib turadi. Chunki, badiiy uslubda uslublarning barcha turlarining namunalarini (so‘zlashuv nutqi, ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, maktubiy nutq, ilmiy nutq. A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Hamid Qora, Kumush, Otabek yozishmalari, O‘.Usmonning “Girdob” romanidagi ilmiy, rasmiy uslublar) ishlatiladi.

Har qanday badiiy asarni o‘tish jarayonida o‘qituvchi badiiy asar uslubi haqida ma’lumot berishi shart. O‘quvchi badiiy asar mazmuni, voqea-hodisalar haqidagi ma’lumot bilan bir qatorda badiiy nutqning quyidagi muhim tomonlari:

- a) badiiy asar birinchi navbatda kommunikativ va estetik funksiyani bajarishini;
- b) badiiy uslubda umumnutqiylik hodisasi mavjudligini;
- d) badiiy tilga keng ta’sir etish. Bu uslubning yana bir tomoni so‘z qo‘llashda chegaraning yo‘qligi haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘ladi.

Badiiy uslub barcha uslub vositalarini yuzaga keltiruvchi holatdir.

O‘qituvchi badiiy uslub leksikasi funksional uslublarning boshqa turlaridan farqli ravishda ko‘proq kitobiylikka asoslanishini, badiiy uslub uchun xos bo‘lgan leksik vositalarga quyidagilar kirishini :

- a) Kitobiy so‘zlar: basharti, barkamol, bardosh, beg‘ubor, borliq, e‘zozlamoq, mumtoz, saodat, sadoqat.

- b) Arxaik soʻzlar: gardun, kishvar, magar, alaxusus, zabun, aftoda, alam, intiqa.
- c) Tarixiy soʻzlar: amir, arbob, jilovdor, yasovul, dorugʻa, mudarris, tanob, toj, dubulgʻa, madrasa, machit.
- d) Soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar: mechkay, qovoq bosh, jenga, barzangi, betamiz, boʻydoq, isqirt, dalli-gʻulli, mahmadona, zarda kabi,
- e) Rasmiy uslubga xos soʻzlar: ariza, tilxat, qaror, tavsifnoma, maʼlumotnoma, bildirishnoma kabi. Dars jarayonida tushuntirib borish kerak.

Oʻqituvchi adabiyot darsi jarayonidaha bir yozuvchining ijodidan bir badiiy asarni oʻtish jarayonida badiiy yoki soʻzlashuv uslubining bir tomoni haqida maʼlumot berib ketishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, badiiy uslub boshqa uslub turlari uchun xos boʻlgan leksik vositalarni qamrab olishi jumladan, atamalar ilmiy uslubiga xos boʻlib, badiiy uslubda qoʻllanilib, nutqning maksimal aniqligini ifodalashi mumkin. Fazo lingvistlari darrov qabul qilingan signallarni matrisa formasida yozib olib, aniqlashga kirishdi (H. Shayxov. “Sirli nur”). Keltirilgan misoldagi lingvist, matrisa atamaları nutqning aniqligini uyushtirishga xizmat qilgan.

Frazeologizmlarni qoʻllash orqali ham badiiy asarda badiiy tasvirchilik vositalarini yuzaga keltirish hodisasi ham tushuntirilishi kerak. Masalan: Boya qishloqdan dadasi keldi. Dadasi nimadandir asabi buzilib, qovogʻidan qor yogʻib kirib keldi-yu, oʻgʻli bilan koʻrishib boʻlmasdanoq Vohid Mirobidov telefon qildi. (O. Yoqubov “Diyonat”). Keltirilgan misoldagi qovogʻidan qor yogʻib iborasi “xafa” maʼnosini ifodalab nutqning taʼsirchanligini oshirgan.

Oʻqituvchi badiiy nutq boshqa nutq usullariga qaraganda obrazli nutq ekanligini oʻquvchilarga yetkazishi kerak. Ona tili va adabiyot oʻqituvchisi bu holatni oʻz nutqida obrazli soʻzlarni, grammatik formalarni, koʻchma maʼnoli soʻzlarni, tabu va evfemizmlarni, jargo va orgolarni,

so‘zlashuv nutqi so‘zlarini qay holatda qo‘llay olishiga bog‘liq. Shunga ko‘ra badiiy nutqda obrazli vositalarni yuzaga keltiruvchi holat ekanligini anglaydilar va o‘zlari obrazli nutq tuzishga harakat qiladilar.

Otabek Kumushga yer ostidan kulib qaradi, Kumush ham kulib javob berdi.

- Shu kishi birov bilan urishadilarmi? – dedi Zaynab, - ikki yildan beri menga bir og‘iz qattiq so‘z aytganlarini bilmayman...

- To‘g‘ri aytasiz, - dedi Kumush, bu kishi emas, men urushqoq edim... Bu kishida sira gunoh yo‘q va arazimizga bir to‘ng‘iz sababchi bo‘lgan edi.

- Kim balo ekan u? – dedi Zaynab.

- Bizning shaharning eng yaramasi, - dedi Kumush va Otabekdan so‘radi, - Siz eshitdingizmi, yaqinda o‘shani bir bek o‘ldiribdir?

Otabek kulimsiradi:

- Eshitdim...

- O‘sha bekning haqiga eshitkin kunimdin beri duo qilib kelaman...

Zaynab so‘radi:

- Sizlarda qanday dushmanlig‘i bor ekan? Otabek “Endi nima deysan” degandek qilib Kumushga qaradi.

Keltirilgan parchadagi har bir adabiy va so‘zlashuv nutqiga xoslangan so‘z o‘z o‘rnida ishlatilgan va obrazlilikni yuzaga keltirgan. Badiiy uslubning asosiy xarakterlovchi belgilardan biri badiiylik, ya‘ni estetik ta‘sir kuchli ekanligini o‘qituvchi o‘quvchiga yetkazishi zarur. Har bir badiiy asar voqeasini o‘tganda ana shunday o‘rinlarni topib o‘quvchilarga o‘qib berishi, yoki shu o‘rinlarni yozdirishi kerakki, o‘quvchilar badiiy tasvirni mohiyatini his etsinlar.

Masalan: IX sinfda A. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan parcha o‘tiladi. Shu parchani o‘tish jarayonida o‘qituvchi ham asar haqida, ham asar voqeasi haqida, asar tili haqida, ham uslublar haqida bema'lol ma'lumot berishi mumkin. Masalan:

- Ariq bo‘yi, sirli ariq bo‘yi.

Yoshliq ko‘zlari ariq bo‘yiga tushib, nozik oyoqlar ariq bo‘yi tomonga qaratilgandir. Ular ariq bo‘yiga yetgach, ma’lum o‘ringa sakrab o‘tdi-da cho‘nqaydi. Bir hovuch suv olib yuzidan to‘kib tushurdi va ohistagina yo‘lak tomonga qarab olg‘andan keyin suvning oqishiga ko‘zini tikdi...

Sirli ariq bo‘yi unga nimalarnidir so‘zlar, nimalarnidir tinglar, tungi chetdan hech kim voqif bo‘lolmaydir-da, bo‘lmog‘i ham mumkin emas.

Ko‘zlaridan oqqan marvarid tomchilarni shu sirli ariq suvi bilan yuvdi, bir marotabagina emas, qaytib – qaytib yuvdi... (A.Qodiriy ”O‘tkan kunlar” 51-bet). Keltirilganlar asosida o‘qituvchi yozuvchining ona tilimizning ne chog‘li bilishini, asar voqeasini ifodalash va obrazlar yaratish, ularning xarakterini ochish uchun tanlab ishlatgan so‘zlari, ya’ni yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati, yozuvchining uslubi, badiiy uslub kabi masalalarini o‘quvchilarga tushuntirib berishi kerak.

Badiiy nutqda bir-biridan farqlanuvchi janrlar aralash ishlatilganidek, badiiy asar tilida uslublar ham aralash ishlatilishi har bir yozuvchining ijodi, asarlari o‘tilganda uslublar haqida ma’lumot berib borish shart.

Ochiq dars ishlanmasi.

Sana: 15.03.2013.

Dars mavzusi: So‘zlashuv uslubiga xoslangan jargo
va argolar

Dars maqsadi:

- a) ta’limiy maqsad - o‘quvchilarga badiiy asarlarda qo‘llanilgan jargo va argolar haqida ma’lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad – o‘quvchilarni ma’naviy-ruhiy olamini shakllantirish, kamol toptirish, ularning idroki, tafakkurini o‘stirish, ezgulik va go‘zallikni ulug‘lashga o‘rgatish;
- c) rivojlantiruvchi maqsad – mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlash malakalarini shakllantirish, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish va fikrlashini o‘stirish.

Dars turi: aralash

Dars usuli: Noan’anaviy

Darsning jihozlanishi: Plokat, bukletlar, ko‘rgazmali qurollar, albom va adabiyotlar:

1. A.Rafiyev “Ona tili va adabiyot” (darslik) Toshkent. 2006.
2. Tohir Malik “Alvido bolalik” Toshkent. 2005.
3. M.Hamrayev “Ona tili” (qo‘llanma) Toshkent. 2012

Mashg‘ulotning xronologik xaritasi.

№	Darsning xronologik xaritasi	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3-daqiqa
2	Uy vazifasini so‘rash, o‘quvchilarni bilimlarini tek.	5-daqiqa
3	O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar	10-daqiqa
4	O‘tilgan darsni yangi dars bilan bog‘lash	3-daqiqa
5	Yangi o‘quv materiallarini bayon qilish	45-daqiqa
6	Yangi o‘quv materiallarini mustahkamlash	10-daqiqa
7	Uyga vazifa	2-daqiqa
8	Dars yakuni	2-daqiqa
	Jami:	80-daqiqa

NOAN‘ANAVIY DARSNING ASOSIY YO‘NALISHLARI:

- a) o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;
 - b) o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
 - v) o‘quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;
 - g) olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.
- Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:
- o‘qituvchilarga kerakli metodik yordam ko‘rsatish;
 - turkum fanlar bo‘yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish.
 - darslarni kuzatish va ularda IPT elementlarini qo‘llash

- darajasini oshirish;
- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish;

Darsning borishi va mazmuni.

I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- s) O'quvchilarning va xonaning darsga tayyorgarligini nazorat qilish

II. Uy vazifasini so'rash, o'quvchilarni bilimlarini tekshirish.

III. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

Savol.

1. O'z shevangizga xos so'zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me'yorlari bilan qiyoslang va farqini tushuntiring.
2. So'zlashuv uslubiga xos til birliklarining xususiyatlarini izohlang.
3. So'zlashuv uslubiga xos grammatik vositalarning xususiyatlarini izohlang.

IV. O'tilgan darsni yangi dars bilan bog'lash:

Jargo va argolarning so'zlashuv nutqida qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari.

V. Yangi o'quv materiallarini bayon qilish:

REJA:

1. So'zlashuv nutqi uslublari.
2. So'zlashuv nutqida jargo va argolarning qo'llanishi.
3. Badiiy asarda jargolarning uslubiy ishlatilishi.

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish

usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.

So'zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo'llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o'z xususiyatlariga ko'ra ikki turga: adabiy so'zlashuv uslubi va oddiy so'zlashuv uslubiga ajratiladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo'lib, u adabiy me'yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingan bo'ladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o'qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta'riflanadi. Bu uslubda so'z tartibi qoidaga nomuvofiq bo'lishi (kecha konsert bo'ldi klubda); ko'chma, obrazli emotsional vositalar ko'proq (g'ayrat qil, shalvira; **Alini qarang, og'zi qulog'ida** kabi) dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko'p ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha, kabi), takrorlar (Kelib-kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (na'lat) (la'nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.

So'zlashuv nutqida jargo va argolar ma'lum bir guruhlar, qatlamlar, ma'lum bir doiradagi kishilar tomonidan qo'llanadi va o'zlari uchungina tushunarli bo'ladi. Masalan: savdogarlar tilida ishlatiladigan so'zlar:

- Ustida ozroqqina shapkasi bor.

- Shapkasi nimasi?

Bu yerda "shapkasi" so'zi savdogarlar tilida ustiga qo'shimcha xaq to'lash ma'nosida ishlatilyapti.

- Ertagayoq aytilgan joyga limonlarni yetqazishing shart!

Bu yerda “limon” so’zi jinoyatchilar nutqida pul ma’nosida ishlatilyapti.

Jargo va argolar badiiy asarlarda ham qo’llaniladi. Bundan maqsad, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisa kitobxon tasavvurida namoyon bo’la olishi, kitobxonda ma’lum bir tushuncha paydo bo’lishidir. Masalan, bunga misol qilib Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasida o’g’ri va jinoyatchilar nutqida ishlatilgan jargolarni keltirishimiz mumkin:

- Demak, gap bunday bratishka, hamma qayerdaligini biladi. (T.Malik).

“bratishka” so’zi - “uka” ma’nosida.

- Bilib qo’y: bashkangni yo’qotma. (T.Malik).

“bashka” so’zi – “bosh” ma’nosida.

- Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. (T.Malik).

“qarmoq ilintira olmaydi” iborasi – “hech kim qo’lga ololmaydi” ma’nosida.

VI. Yangi o’quv materiallarni mustahkamlash:

Darsda o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini tekshirish uchun “**Kim yaxshi suzadi**” o’yinidan foydalaniladi. Bunda o’qituvchi o’quvchilarni uch yoki to’rt guruhga bo’lib, doskani bir necha ustunga bo’ladi. Guruhlar ustunlarni to’ldiradilar.

Savdogarlar nutqiga xos jargolar	O’g’ri va jinoyatchilar nutqiga xos jargolar	Din peshvolari nutqiga xos jargolar
Shapkasi bor	Arra qilamiz	Makhur
Ko’kidan	Tulki	Vallohu olam
Qaychidan ehtiyot bo’l	Yelkasini silamoq	Shahnatun najaf
Sochini olmoq	Mehmonga kuzatmoq	Gunohi kabir

VII. UYga vazifa berish:

Badiiy asarlarda jargolarning qo’llanilish uslubini o’rganib kelish.

Umumiy xulosalar

Mavzumiz bo'yicha to'plangan va tadqiq qilingan materiallar shuni ko'rsatadiki, shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida o'zbek nutqining o'zi, ya'ni o'zbek nutqining o'zi maxsus hodisa, maxsus kategoriya sifatida kam o'rganilgan. Bunda nutq, nutq va til, o'zbek nutqi uchun xos bo'lgan asosiy tomonlar, o'zbek nutqining tiplari, turlari, maktubiy uslublar tili, ichki va tashqi nutq, nutqning lingvistik, psixologik, mantiqiy, estetik, etikaviy tomonlari va ularning o'zaro munosabatlari, o'zbek nutqiga xos vositalar, ularning o'zaro munosabatlari kabi masalalarning har biri so'zlashuv nutqi muammolari sarlavhasi ostida o'rganilishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning o'ziga xos muhim tomonlaridan birini so'zlashuv nutqiga xoslangan jargonlar va argolar tashkil etadi.

Ma'lumki, har qanday nutq yakka tarzda yuzaga chiqadi. Nutq ma'lum turmush sharoitida, aloqa jarayonida yuzaga keladi. Til hayotda yakka tarzda yuz bersa-da, tilda birgina kishi emas, ko'pchilik - butun bir xalq gaplashadi. Bu aloqa jarayonida turli so'zlardan: haqorat, erkalov, piching, kinoya, g'azab, qarg'ish, nafratlanish, jirkanish, koyish, emotsional obrazli so'zlardan, tabu va evfemizmlardan, jargo va argolardan foydalanadilar.

So'zlashuv nutqi hodisasi turli tematik gruppadagi so'zlarni o'z ichiga oladi. So'zlashuv nutqi leksik birliklarining bir qismini soda so'zlashuv tashkil etadi. Shular ichida so'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar alohida o'rin tutadi. Chunki badiiy asar tilining jonliligini, ta'sirchanligini, obrazliligini ta'minlovchi kundalik sodda nutq vositalari bular dialektizmlar, jargo va argolardir.

O'zbek tilshunosligida jargo va argolar va ularning o'rganilishi borasida xulosalarimiz quyidagicha:

1. Jargo va argo tushunchalari bir-biridan farqlanishi kerak. Barcha nazariy va ilmiy adabiyotlarda jargo va argo atamasi berilsa-da, ikkalasiga bir xilda misol keltiriladi va bir xilda tahlil qilinadi. Bu farqlanishi kerak.

2. Adabiyotlarda har ikkala holatni ham “buzilgan til” atamasi bilan beriladi. Jargon deyilganda nutqning balandparvozliligi, nutqda (forscha, arabcha, boshqa soʻzlarni) oʻzgalar uchun tushunarsiz boʻlgan soʻzlardan foydalanishdir, yaʼni balandparvoz, dabdabali nutqdir. Masalan: - Bizga ziyofat malxuz emasdur, Neʼmati jannatdan keltur (“Mushtum”). Neʼmati jannat – yosh qiz maʼnosida.

Tilshunoslikda ikki hodisa sifatida: birini buzilgan til, ikkinchisini boshqa tillardan olinib, boshqa maʼnoda qoʻllanuvchi soʻz sifatida oʻrganilishi kerak.

3. Argolar ham buzilgan til. Lekin jargolar kabi oʻzgalar soʻzi, balandparvoz, dabdabali soʻzlar boʻlmay, oʻzbek tili soʻzlariga turli qoʻshimchalar: - zi, - za, - fa, - ran, - zan, - gaza, - ru, - fu, - bizir, - zap qoʻshimchalarini qoʻshish orqali hosil qilinadiki, bu hol aynan soʻzlashuv nutqi hodisasidir. Masalan: - Maraq sarangara bizir gazal azaytazamazan. (Men senga bir gap aytaman). –Mafan Difilshofodgafa safanifi yafaxshifi koʻfragaman defedifim (Men Dilshodga seni yaxshi koʻraman dedim).

4. Oʻzbek tilshunosligida argolar alohida tasniflanishi, alohida oʻrganilishi kerak boʻlgan hodisadir. Bu narsa bevosita oʻzbek soʻzlashuv nutqi hodisasining oʻziga xosligi sifatida oʻrganilishi kerak.

5. Oʻzbek soʻzlashuv nutqining funksional uslublarga munosabati masalalari ham alohida-alohida tadqiq qilinishi kerak boʻlgan sohalarandir. Chunki, soʻzlashuv nutqining funksional – uslublarga munosabati masalasi ham kam oʻrganilgan.

Xulosa qilib aytganda “Soʻzlashuv nutqi” deb yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmushda kishilar oʻzaro aloqa jarayonida amal qiluvchi nutqiy hodisadir. Soʻzlashuv nutqi manbalarda qayd etilganga koʻra, monologik va dialogik nutq shaklida yuzaga chiqadi. Ammo soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan

yetakchi belgi birdan ortiq, ya'ni ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro so'zlashuvlari, fikr almashinuvlarida yuzaga keluvchi holatdir. Demakki, so'zlashuv nutqi uchun yetakchi nutqiy forma birdan ortiqlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1992.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. "Sharq", 1998.
4. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1963.
5. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996.
6. Begmatov E. Nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1980.
7. Begmatov E. Bobiyeva A. Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent, 1983.
8. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
9. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Badiiy til va badiiy stil. Toshkent. "Fan", 1988.
10. Husanov M. O'zbek adabiy publitsistikasi. Toshkent, 1978.
11. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, 2002.
12. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. Toshkent, 1975.
13. Qo'chqortoyev I. Badiiy so'z ustasi. Toshkent, 1967.
14. Qo'chqortoyev I. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1975.
15. Rozental D.E. Практическая стилистика русского языка. Москва, 1987.
16. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981.
17. Tursunov U., Muxtorov A., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1976.
18. Tursunpo'latov M. Лексика узбекской разговорной речи. Toshkent, "Fan" 1986.
19. Tursunpo'latov M., Sattorov G'. So'zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar ("Filologik tadqiqotlar") Toshkent, 1979.
20. Usmonov S. O'zbek tili. Toshkent, 1977.

21. Vinogradov V.V. Проблемы культуры речи и некоторые задачи русского языкознания. Москва, 1974.
22. O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. Toshkent, “Fan” 1982.
23. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent, 1974.
24. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
25. Shomaqsudov A.Sh. O‘zbek adabiy tilining stillari haqida. Toshkent, 1970.
26. Shomaqsudov A. XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi adabiy tilda publitsistik stilning rivojlanish xarakteri. Toshkent, 1970.

Mundarija

Kirish.....	2
I.Bob. So‘zlashuv nutqi haqida tushuncha.....	7
1.1. So‘zlashuv nutqi leksikasining xarakterlovchi belgiva mezonlari.....	7
1.2. So‘zlashuv nutqiga xoslangan oddiy muomalaga oid so‘zlar.....	9
1.3. So‘zlashuv nutqi uslubi tushunchasi.....	12
1.4. So‘zlashuv nutqining oddiy so‘zlashuv nutqi, “soda tilga” munosabati.....	16
1.5. So‘zlashuv nutqiga xoslangan erkalov-kichraytiruv so‘zlari.....	21
1.6. So‘zlashuv nutqiga xoslangan tabu va evfemizmlar.....	23
1.7. So‘zlashuv nutqiga xoslangan kinoya, piching so‘zlar.....	25
II.Bob. So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar.....	32
2.1. So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolarning tasnifi.....	32
2.2. Saroy amaldorlari va din peshvolari nutqida qo‘llaniluvchi jargo va argolar.....	36
2.3. Savdogarlar va bozorchilar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar.....	38
2.4. Otarchilar, sozandalar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar.....	39
2.5. Xotin-qizlar va talabalar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar.....	41
2.6. So‘zlashuv nutqiga xoslangan argolar.....	43
2.7. Jargo va argolar adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi belgilar ekanligi.....	45

III.Bob. Badiiy asarlarni o‘tish jarayonida uslublar haqida ma’lumot berish.....	49
3.1. Uslublar haqida ma’lumot.....	49
Ochiq dars ishlanmasi.....	53
Xulosa.....	58
Adabiyotlar ro‘yxati.....	61

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti IV kurs talabasi Umarova Yulduzning
“So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” nomli bitiruv malakaviy
ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Yulduz Umarovanning “So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” nomli bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, jargo va argolarni o‘tish uslubiyati bo‘limi, xulosa, adabiyotlar ro‘yxatidan iboratdir. Ishning kirish qismida mavzuning tanlanishi, mavzuning dolzarbligi, ishning maqsad va vazifasi, ishning ishlanish darajasi, ishyda yoritiladigan masalalar xususida so‘z boradi.

Ishning birinchi bobi so‘zlashuv nutqi leksikasi va so‘zlashuv nutqi leksikasini tashkil etuvchi qon-qarindoshlik atamaları, erkalov, haqorat, piching, kinoya so‘zlar tahlil etiladi.

Ishning ikkinchi bobi “So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” deb nomlanadi. Ishning bu bobida o‘zbek tilining izohli lug‘ti, o‘zbek tili grammatikalarida berilganlar asosida jargo va argolar ta’riflanadi va tasniflanadi. Masalan: Saroy amaldorlari nutqida qo‘llaniluvchi jargo va argolar, din peshvolari, savdogarlar, o‘g‘rilar, otarchilar, vrachlar nutqida qo‘llaniluvchi jargolar, xotin-qizlar, talabalar nutqida qo‘llaniluvchi jargo va argolarga bo‘linadi. Keltirilgan har bir belgi badiiy asarlardan, jonli nutqdan olingan misollar orqali tahlil etiladi.

Ishning xarakterli tomoni shundan iboratki, jargo va argo atamaları bir-biridan farqlanadi.

Ishning uchinchi bobi “Badiiy asarlarni o‘tish jarayonida uslublar haqida ma’lumot berish” deb nomlanadi va so‘zlashuv uslubini o‘tish jarayonida jargo va argolar haqida ma’lumot berish uslubiyati haqida yaxshi ma’lumotlar beriladi. Ishning xulosa bo‘limida Umarova Yulduz o‘z mulohazalarini besh punktda ilmiy asoslab ko‘rsatadi.

Ish material va tahlil jihatidan barcha talablarga javob beradi. Keltirilganlarni e’tiborga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. M. Tursunpo‘latov

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti IV kurs talabasi Umarova Yulduzning
“So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” nomli
bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Umarova Yulduzning “So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” nomli malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, jargo va argolarni o‘tish uslubiyati, umumiy xulosalar, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning tanlanishi, dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifasi, ishning ishlanishi va obyekti, ishda yoritiladigan masalalar, ishning ilmiy va amaliy tomonlari bayon etiladi.

Ishning birinchi bobi “So‘zlashuv nutqi uslubi tushunchasi haqida” deb nomlanadi. Ushbu bobda so‘zlashuv nutqi leksikasi tushunchasi, so‘zlashuv nutqi leksikasi hodisasiga kiruvchi oddiy muomalaga kiruvchi so‘zlar jo‘ra, o‘rtoq, jigar (yaqin qarindosh), jigar (haqiqiy o‘zbek), jigar (organizm) kabi, so‘zlashuv nutqi uslubi tushunchasi, so‘zlashuv nutqining “sodda til”, “soda nutq” tushunchasiga munosabati, bu borada qo‘llanilayotgan terminologik chalkashliklar (“soda til”, “soda nutq”, “oddiy nutq”, “kundalik nutq”, “kundalik turmush nutqi”) borasidagi mulohazalar, so‘zlashuv nutqiga xoslangan erkalov so‘zlari (aylanay, o‘rgilay, qoqindiq, taylog‘im, bolaginam, erkaginam), so‘zlashuv nutqiga xoslangan evfemizmlar (yor, o‘rtoq, boshi ochiq, boshi boylangan, homilali, yukli, ikki qat), so‘zlashuv nutqiga xoslangan kinoya, piching so‘zlar borasidagi mulohazalar bayon etiladi.

Ishning ikkinchi bobi “So‘zlashuv nutqiga xoslangan jargo va argolar” deb nomlanadi. Bu bobning o‘ziga xos tomoni shundaki, o‘zbek, rus tilining izohli lug‘atlariga tayanilgan holda jargo va argolar ta’riflanadi va oldingi bajarilgan ishlarda uchramaydigan holat, argo va jargolar bir-biridan farqlanadi va bu tushunchalar funksiyalariga ko‘ra tasniflanadi va bu tasnifga ko‘ra talabalarning

jargo va argolari ham qo‘shiladi. Har bir belgi badiiy asarlardan olingan misollar bilan isbotlanib tahlil etiladi. Masalan: Hoja tili:

- G’amza bilan jonim oling,
- Katmonda darmon qolmadi. (“Mushtum”)

Yoki: Samad. Laylinahor, sayohating qalay bo‘ldi?

Lola. Kecha bo‘ynim marjon ko‘rganday bo‘ldi.

Keltirilgan misollardagi “g’amza” so‘zi “noz”, “ishva”, “muqom” ma’nosida, “marjon” so‘zi “pul” ma’nosida ishlatilgan.

Ishning ikkinchi bobi ilmiy isbotlarga, faktlarga boy va qiziqarlidir.

Ishning uchinchi bobi “Badiiy asarlarni o‘tish jarayonida uslublar haqida ma’lumot berish” deb nomlanadi. Bu bobda uslublarni o‘tish jarayonida o‘quvchilarga so‘zlashuv nutqi leksikasiga kiruvchi tushunchalar haqida ma’lumot beriladi.

Ishning umumiy xulosa qismida Umarova Yulduz o‘zining bu boradagi beshta xulosasini beradiki, bu xulosalar kelajakda bu borada ish qiluvchilar uchun aynan kerakdir.

Ishda ba’zi kamchiliklar ham mavjud:

2. Ishning birinchi bobi ancha kengayib ketgan.
3. Ishning uslubiy qismi sal kamroq.
4. Ishda ba’zi takroriy mulohazalar bor.

Xulosa qilib aytganda, Umarovanning ishi juda yaxshi, puxta yozilgan. Mavzu jihatidan ham yangi. Ishning umumiy holatini, materiallarni tahliliy jihatdan puxtaligini hisobga olib ishni yuqori baholayman.

Taqrizchi:

**Katta o‘qituvchi
Ibragimova L.**